

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

FALSAFA FAKULTETI PSIXOLOGIYA YO‘NALISHI

JO‘RAYEV O‘TKIRJON TASHPULATOVICH

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: INDIVIDUALLIKKA DAXLDOR RASMIY DINAMIK
SO‘ROVNOMALARNING PSIXOLIK TAVSIFI**

5310200-Psixologiya talim yo‘nalishi

**Ilmiy rahbar: Psixologiya fanlari nomzodi
dotsent A.I.Rasulov**

TOSHKENT -2014 yil

Mundarija:

	Kirish	3
I-bob	SHaxsning individual-psixologik xususiyatlarini metodologiyasi	6
1.1.	Individuallik psixologik muammo sifatida	6
1.2.	Individuallikni rasmiy–dinamik xususiyatlarini psixologik tadqiqotlarda o‘rganilishi	15
1.3.	Individuallikni psixodiagnostik metodikalari	20
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa	23
II-bob.	Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlariga daxldor so‘rovnomalarning psixologik tavsifi	24
2.1.	V.M.Rusalovning “Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlari so‘rovnomasi”ni savollari xususiyatlari	24
2.2.	Ya.Strelyau “Temperament tuzilishini o‘rganish” so‘rovnomasi	32
2.3.	Mayers-Briggs tipologik so‘rovnomasi	34
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	40
III-bob.	Individual-dinamiklikni o‘rganishga doir so‘rovnomlarning tatbiq etish bo‘yicha empirik natijalari	41
3.1.	V.M.Rusalovning “Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlari so‘rovnomasi” so‘rovnomasi tatbiq etish natijalari	41
3.2.	Ya.Strelyauning Temperament strukturasini o‘rganish so‘rovnomasi	48
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa	52
	Xulosalar	54
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	55
	Ilovalar	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori o'sib, ma'naviy dunyosi kundan kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma'naviy asosini yanada mustahkamlashga imkoniyat yaratib bermoqda. Lekin bundan ma'naviyat sohasida hech qanday muammo yo'q degan xulosani chiqarib bo'lmaydi. Bugungi kunda erkin fuqaro ma'naviyati, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. "Boshqacha qilib aytganda, - deydi Prezidentimiz – o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, erkin jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak".

Dunyo miqyosidagi hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayot kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, unda harbiy qudrat emas, balki shaxsning psixologik xususiyatlari, intellektual salohiyat, aql-idrok, fikrlash, yangi texnika va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb-etadi. Yoshlarni mustahkam irodali qilib tarbiyalash, mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish tufayli ular kelgusida o'z oldilarida vujudga kelishi kutiladigan muammolarni ijodiy ravishda hal qilish orqali xalq xo'jaligining rivojlanishiga, Respublikamizning ilg'or texnologiyali jahon davlatlari qatoridan munosib o'rin egallashiga hissa qo'shishga erishish mumkin.

Davlat va jamiyat tomonidan yoshlarning, ta'lim muassasalari mutaxassislari hamda ota-onalarning oldiga qo'yilayotgan vazifalar bevosita psixologiya sohasida yaratilayotgan turli psixodiagnostik metodlar (trening, diagnostika, psixoterapevtik suhbatlar, intervyu, anketa usuli, test usuli)yordamida amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Psixologiya sohasi keyingi 10 yillar mobaynida anchagina rivojlandi. Shuningdek, psixologiya sohasining alohida yo'nalishlari sifatida psixodiagnostika, psixokorreksiya va trening tarmog'i ham rivojlandi.

Bularning barchasi jamiyatda shaxsning aniq psixologik xususiyatlarini o'rganish, ularning yutuq va kamchiliklarini bilish va shunga mos ravishda ta'sir ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur tadqiqot ish aynan aunday dolzarb muammoni o'rganishga mo'ljallanganligi bilan xarakterlidir.

Tadqiqot ishining maqsadi. Individuallikka daxldor rasmiy dinamik so'rovnomalarning psixologik tavsiflash va ular bo'yicha empirik ma'lumotlar olish.

Tadqiqot ishining predmeti. Individuallikka daxldor rasmiy dinamik so'rovnomalarning psixologik tavsiflash jarayoni.

Tadqiqot ishining vazifalari:

1. Individuallikning metodologik masalalarini tahlil qilish orqali, so'rovnomalarning xususiyatlarini yoritish.

2. Individuallikka daxldor rasmiy dinamik xususiyatlarni o'rganish so'rovnomalarining psixologik tavsiflash

3. So'rovnomalarning namunalari asosida psixologik tadqiqotlar o'tkazib, ularning empirik natijalarini tahlil qilish.

Tadqiqot ishining ilmiy farazi. Agar individuallikka daxldor rasmiy dinamik so'rovnomalarni o'zaro aloqadorlikda tatbiq etishga erishish, shaxsning individuallik xususiyatlarini xolisona baholash imkonini berishi mumkin.

Tadqiqot metodlari va metodikalari.

1. Individuallikka doir materiallarni analitik tahlil usuli yordamida bag'olash.

2. So'rovnoma va test usullari.

3. V.M.Rusalovning "Individuallikni rasmiy dinamik xususiyatlari so'rovnomasi" va Ya.Strelyau "Temperament tuzilishini o'rganish" so'rovnomasi

4. Matematik-statistika usullaridan foydalanish.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari. Individuallikning psixologik mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi psixologik konsetspiyalar (Gippokrat, Gallen, E.Krechmer, SHeldon, I.P.Pavlov, V.S.Merlin, K.K.Platonov, B.M.Teplov, V.M.Rusalov va boshqalarning nazariy yondashuvchlari);

psixologiya fanining prinsiplari: ong va faoliyat birligi, determenizm, shaxsning tarixiy rivojlanishi tadqiqotning nazariy-metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati.

Tadqiqot ishida shaxsning individual xususiyatlarini diagnostikasi va psixokorreksiya simptomlarining nazariy tahlilida keltirilgan ijtimoiy-psixologik fikrlar yuzasidan to'plangan materiallar umumiy psixologiya, differensial psixologiya, psixodiagnostika, psixokorreksiya, amaliy psixologiya sohalarini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining obekti. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Filasfa, Horijiy filologiya va Geografiya fakultetlari talabalari.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati. BMI tadqiqoti ishining natijalaridan quyidagi sohalarda foydalanish mumkin.

1. Psixodiagnostika fanini o'qitishda qo'llanma.
2. Individuallik xususiyatlarini tadqiqot metodikalari sifatida;
3. Shaxslarning individuallik jihatlarini yoritish holatda, ularning kasbiy faoliyatini tashkil etishda.
4. Kasbiy saralashda.

BMIning ilmiy yangiligi:

1. Individuallikka daxldor rasmiy dinamik so'rovnomalarni mahalliy muhitga moslashtirishga harakat qilinganligi.

2. V.M.Rusalov so'rovnomasining natijalarni qayta ishlash tizimini takomillashtirilganligi.

3. V.M.Rusalov va Ya.Strelyau so'rovnomalari yordamida o'zaro aloqadorlikda tatbiq etilganligi.

Tadqiqot ishining tuzilishi.

Ushbu ish kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosasalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tuzilgan.

I-bob. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini metodologiyasi

1.1. Individuallik psixologik muammo sifatida

Ma'lumki, shaxs va uning o'ziga xosligi, individualligi muammosi hozirga qadar umumiy psixologiya, differensial psixologiya, shaxs psixologiyasi kabi fanlarning bahs-bop va qiziqarli mavzusi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Bizningcha, individuallik shaxsning xulq-atvor sifatleri, xarakter sifatleri va ularning dinamikasi, oliy nerv sistemasi va uning namoyon bo'lish xususiyatlari kabi masalalarni mazmunan ifodalab, shaxsni tadqiq etishning o'ziga xos yondoshuvini nazarda tutadi. Individuallik tushunchasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, «individuum» ya'ni «bo'linmas» degan ma'noni anglatadi. Individuallik har bir insonning o'ziga xos psixik xususiyatli ko'rinishi bo'lib, u o'zining xayoti va faoliyati davomida shaxsda sub'ekt sifatida ishtirok etadi va ijtimoiy- tarixiy madaniyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. U inson psixikasining betakror qobiliyati va ehtiyojining o'sishida bir butunlik va yagonalik jarayonlari orqali aniqlanadi. Faqatgina faoliyat jarayonida u jonli narsalar bilan munosabatga kirishish tufayli shakllanib boradi. Aynan individuallik madaniyatning qaytarilmas ifodalovchisi (tarqatuvchisi) bo'lib qoladi.

Munosabatga kirishish uchun zarur bo'lgan vositalar qatoriga predmetni, forma (shakl)larni, tilni, bilimni, aqlni va boshqalarni kiritish mumkin. Shaxsning ana shu jixatlari uning individualligini ko'rsatadi.

Insoni to'raliligicha o'rganishda 3 ta manbani ajratish mumkin. Ulardan biri falsafadagi **dialektik-materialistik** tizimlash prinsiplaridir. U xar bir xodisani qandaydir integral butunlikdan, uni ichidagi ko'plab elementlar orqali – shartli qandaydir tizim xosil qiluvchi funksiya bilan bog'langan deb o'rganan.

Inson haqidagi ta'limotni boshqa bir manbail boshqa aralash fanlarning yutuqlari edi: biokimiya, psixofiziologiya, sotsialpsixologiya. Bu tadqiqotlarda individualikning xususiyatlari o'rganilib, boshqa alohida fanlarda bunchalik to'liq yoritilmaydi. Bu tadqiqotlar natijasida yangi tizimli qarash va umumiy nazariya

yordamida tartiblararo aloqada har qanday reduksionizmni tushuntirishga yordam berdi. Misol uchun: Differensial psixologiyada, psixofiziologiyada insonning psixik xususiyatlarini, asab tizimi xususiyatlaridan ajratish yoki sotsial psixologiyada shaxs xususiyatlarini; shaxslararo munosabatlardan ajratish kabilar.

Va nihoyat individuallikning integral tadqintegralik qotlashning 3 chi manbai – umumiy amaliyotni talab qilishdir. Inson individualigiga taluqli bo‘lgan barcha Amaliy masalalarni hal qilishda samatik xilma-xillikni nerv fiziologik, umumiy psixologik va sotsial psixologik individua xususiyatlarni va ularning o‘zaro bog‘liqligini inobatga olish kerak.

Insonning yuqori ierarxik darajasi va shaxslararo munosabatlar tipik hamda sotsial – tipik darajalaribor. Sotsial – tipik shaxsiy xususiyatlari va shaxslararo munosabatlar sotsial qonuniyatlar rivojlanishiga asoslanadi. Shaxsning sotsial tiplari va individual integral xaraktirestikasining bog‘liqligi ikki taraflamadir.

Birinchidan shaxsning sotsial tipik xususiyatlari inson faoliyatida integral individuallik orqali amalga oshadi. Uning yaqqol ko‘rinishini biz faoliyatdagi individual stilda ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, individual stil barcha kerakli darajalardagi individual xususiyatlarga asoslanadi: asab tizimi xususiyatlari, temperament, shaxs xususiyatlari, sotsial status. Shu ma’noda individual uslub individuallikning integral xarakteristikasini tushuntiradi.

Individual uslub peshqadam ishchilarda, bilimga chanqoq o‘quvchilarda yaxshi ko‘rinadi. Faqat aktiv munosabatlar orqali inson faoliyati uslubini yaratadi va shu orqali individullikni integralligini mos kelishi, kelmasligini aniqlaydi.

Ikkinchidan individuallik ierarxik darajasi sotsial-tipik sharoitlarsiz vujudga kelmaydi. Bioximik individuallikda qondagi sterioitlarni ko‘payib ketishi iqtisodiy va siyosiy xayotdagi sotsial – tipik stresli xolatlar Bilan bog‘liqdir. SHuning uchun individual integrallik xar xil sotsial tiplarga bog‘liqdir.

Biz asab tizimiga va temperament xususiyatlariga tegishli xususiyatlarni taqqosladik. Ular 22 ta sovet va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olingan. (B.M. Teplov, V.D.Nebilitsen, B.G.Ananev, Ayzenk – Grel laboratoriyalaridan olingan.) Ular 30ta asab tizimi xususiyatlariga tegishli ko‘rsatkichlarni va **37 ta**

temperament xususiyatlariga ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishgan. Biz asab tizimi xamda temperament xususiyatlari orasida ko'plab bog'liqliklarni aniqladik. Masalan qo'zg'alish kuchini xavotirlanish boshqaradi u asab jarayonlarini qo'zg'alishi va me'yorlashgan kuchi bilan bog'liq. Boshqa taraflama qo'zg'alish kuchini xavotirlanish xam, reaktivlik xam , ekstroversiya-introversiya xam boshqaradi. Shunday qilib asab tizimi xususiyatlari (neyrodinamik) va temperament xususiyatlari (psixodinamik) individuallik xar xil ierarxik darajalarga qarashlidir.

A.D.Erashenko tadqiqotlarida shaxs xususiyatlari va sotsial status bog'liqligini o'rgangan.

Ko'rib chiqilgan faktlardan quyidgicha xulosa chiqarish mumkin. 1) individuallik integral xususiyatlar orasida xama katta tizimlardagidek matematik tiplar mavjud. 2) Xusuiyatlar xar xil individual integrallardagi ierarxik darajaga taluqlidir: a) asab tizimiga (neyrodinamik), b) temperamentga (psixodinamik), v) shaxslikka, g) guruxdagi va kollektivlardagi sotsial muxitga.

V.D.Nibilitsin va *V.M.Rusalov* tadqintegralqotlarida asab tizimining oddiy elektroeksefalografik faktor strukturasi aniqlangan.

V.V.Belous ishlarida temperamentning oddiy faktorli strukturasi aniqlangan. *Kettel* ko'magida ko'plab tadqiqotlarda shaxs xususiyatlari **M** simptonmieks xususiyatlari aniqlangan.

Ierarxik darajalar ko'pqirralik kriteriyasiga qarabgina emas boshqa kriteriyalarda ham aniqlanadi. Quyi ierarxik darajani biz yuqori daraja qismi qarash mumkin.

P.K.Anoxin asab tizimida neyronli darajani, neyronlar populiyasiyasi darajasini aniqlagan. Yoki *B.G.Ananev* fikricha quyi ierarxik daraja yuqorisiga qaraganda genetik yoki funksional taraflama qaralib birlamchi xisoblangan.

Individual integral darajadagi biz ajratgan xususiyatni, shaxsning neyrodinamik, psixodinamik xususiyatlari va sotsial statuslari Bilan taqoslab bir-birisiz bo'lmaydi deb aytolmaymiz. Bir darajaga xos xususiyatni boshqa bir daraja xususiyatlaridan chiqarib olomaymiz.

Faqatgina asab tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib, temperament xususiyatini ayto olmaymiz. Shaxs xususiyatini temperament xususiyatini o'rganish orqali xam to'liq ayto olmaymiz.

Ko'p ahamiyatli aloqalar natijasida ierarxik darajalarda ma'lum bir ochiqlik va yopiqlik darajasiga erishadi. **L.Bertalanfi** va **R.Eshbi** lar aytishicha bunaqa katta tizimlar ob'ektiv sharoitimiz o'zgaruvchanligini va ko'plab o'zini rivojlantirish va o'zaroboshqarishni ta'minlab beradi. Qaysidir ierarxik darajadagi bir xil xususiyatlar o'zgarib turuvchi aloqa yoki sharoitlardan boshqa darajalar bilan xar – xil funksiyalarni bajarishi mumkin.

Shunday qilib har – xil xususiyatlar o'rtasida kompensator munosabatlari o'rnatiladi. Ko'p yillik differensial psixofiziologiya ishlarida biz insonni asab tizimi tipii xususiyatlari va faoliyatga bo'lgan munosabatida, faoliyatning individual stil tipologiyasiga asoslanadi. Agar inson unchalik effektiv bo'lmagan va uning tipologik xususiyatiga to'g'ri kelmaydigan operatsiyalar tizimini qo'llasa bunda asab tizimi xususiyatini faoliyatga va faoliyat ijobiy munosabatni ta'sirlari orasida kelishmovchilikni yuzaga keltiradi. Asab tizimi faoliyati faoliyatga ijobiy munosabatni amalga oshirishga to'siq bo'lib qoladi. Agar operiyasiyalar tizimi tipologik xususiyatlarga mos, to'g'ri kelsa unda shaxsning ijobiy yo'nalganligi faoliyatda amalga oshiriladi va bu asab tizimining umumiy tiplari xususiyatda kuzatiladi.

Asosiy natijalar shuni ko'rsatadiki konstatirlashgan eksperimentda agar ko'plab tekshiriluvchilarda faoliyatning individual stili bo'lmasa unda har-xil darajalardagi xususiyatlarni statistik ahamiyati o'zaro moslashadi.

Misol: maktab yoshidagi psixodinamik xavotirdagi bola kollektiv roli o'yinlarini qiziqishiga xos o'yinlardan o'zini olib qochadi. Katta maktab yoshidagi bolalarda psixodinamik muloqotiga kirisholmaslik (introversiya) faoliyatda kollektivga yo'nganliklikni unchalik rivojlanmaganlik asosida kelib chiqadi. Psixodinamik muloqotsizlikni va kollektivlikni yo'nalganligi o'rtasidagi ziddiyatni insonlar o'rtasidagi muloqot orqali xal etish talab qilinadi. Faoliyatdagi individual stil roli faqatgina xar-xil darajalarni o'zgaritishini ta'minlabgina qolmay ularni

gormonizatsiya tarafiga o'zgarishni xam ta'minlaydi. Individual stilni egallash **gormanik individuallikni** rivojlantirishga asos bo'ladi.

Shaxs rivojlanishidagi va individual integrallikdagi faoliyat rolini taqqoslab **ikkiga** ajratishimiz mumkin. SHaxs rivojlanishi faoliyat maqsadi asosida amalga oshadi.

Konkret sotsial vaziyatlar va ob'ektiv talablar asosida faoliyatningt yangi maqsadi vujudga kelib, ular o'z navbatida shaxsni yangidanshakllanishini aniqlaydi. SHuning uchun shaxsni rivojlanishini asosiy muammosi bu maqsadlarni determinatsiyasidir. Bu orada individualning integralligini rivojlanishi faoliyatining operiyasional qismiga asoslanadi. SHuning uchun bu erda asosiy muammo faoliyatdagi operiotsional qismini determinatsiyasidir.

Bundan tashqari boshqa farqlar ham mavjud. Faoliyatdagi yangi maqsadlarni roli natijasida shaxs xususiyatlarining yangi tizimi vujudga keladi. Ma'lum bir rollar tizimi operatsiyalar o'zgarishi natijasida individual integral xususiyatlari garmoniziyasiyalashadi.

Har-xil operatsiyalar qo'shilishi va ma'lum bir aloqalar yordamida individual stilni xarakterlashda, yangi faoliyatdagi har-xil kompensator munosabatlari xosil bo'ladi. Ular har – xil individual xususiyatldarga tayanadi. Misol: muloqtga kirishishga qiynaladigan bolaga muloqotga asoslangan vazifa berilsa, uning kommunikativ faoliyatidagi salbiy taraflari yuqori maxsuldorlik va kontrol faoliyatlari bilan kompensatsiyalanadi. Shuning uchun individual stilni eallash insonlarda faoliyatdagi bir-xil ob'ektiv talablardanam optimal yuqori maxsuldorlikni ta'minlaydi ular individual xususiyatlari har-xil bo'lsayam.

Individual stilni o'zlashtirish natijaida yuqori maxsuldorlikka erishish faoliyatni sotsial baholash va o'z navbatida sotsial statusda aks ettiriladi.

Integral individuallikni rivojlanishda bir-xil xususiyatlar o'zgarmasdan qolib, faqat ular orasidagi aloqalar o'zgaradi va shaxs rivojlanishini o'zgarib turishini ta'minlaydi. Shaxsning yangidan shakllanishii integral individuallik asosida mustaxkamlangan xususiyatlarda vujudga keladi.

Individual integrallikni rivojlanishi shaxsni yangilanishini ta'minlovchi omildir.

Faoliyatdagi individual stil va faoliyatni operatsional qismi o'qitish va o'qish o'zini boyitish jarayonida shakllanadi. Shuning uchun u xamisha insonlarga bir xil ta'luqli emas. Ko'plab tadqiqotlarda biz maktabgacha yoshlardagi individual stilni konstruktiv faoliyatda shakllantirdik roli o'yinlarda arifmetik masalalarni hal etishda ijtimoiy ishlarda va boshqalarda. Lekin o'zini o'qitish ya'ni rivojlanish va o'qish individual stilni o'zlashtirishga kerakli omillar xolos. **G.E. Dikopolskiy** va **E.V. Shtimmer** tajribalarida bolalarni o'qitish jarayonida ular 2 ta har – xil individual stilni egalashgan va ularni vaziyatlarda yaxshi qo'llay olishgan. Lekin ularga yangi masalalarda o'rganilgan stillardan birini qo'llashni aytishganida, ularni tanlovchi asab tizimini tipidagi individual xususiyatlarga tayangan xolda amalga oshirgan. Faoliyatning determinatsiyalashgan operatsional qismini asosiy faktori bo'lib, individual xususiyatlar o'rtasida ikki ahamiyatli tushunchalarga tayanadi. Bir tarafdin operatsiya tizimi insonning individual xususiyatidan kelib chiqadi. Ikkinchi tarafdin individual tizimni o'zlashtirish natijasida har – xil darajalardagi individual xususiyatlar o'rtasidagi aloqalar xarakterli operatsiyalar o'zgaradi.

L.I.Bojovich konsepsiyasida har bir ontogeniz bosqichida sotsial vaziyatlar asosida faoliyatning yangi maqsadi va motivlari vujudga keladi. Ular o'z navbatida shaxsni yangidan xosil qiluvchi determinatsiya tizimi xususiyatlarini anglatadi, tushuntiradi.

Shunday qilib operatsiyalar tizimi yangi individual xususiyatlarni emas, mavjud bo'lgan xususiyatlar o'rtasidagi yangi aloqalarni xosil qiladi. Ya'ni individuallikning har xil ierarxik darajalari xususiyatlari asosida xosil qiladi. Ko'p darajali determinatsiya natijisida individual stil garmoniya xosil qiladi, ya'ni har-xil individuallik darajalarini birlashtiradi. I.X.Pikalov tadqiqotlarida katta maktab yoshidagilarda individual stilni o'zlashtirishda psixadinamik muloqotsizlik sotsial muloqotni egallash qiyinligini ijobiy kollektivlik yo'nalganligi disgarmonlashtirgan. SHuning uchun ijtimoiy ishlarda aktiv qatnashish kollektivlik yo'nalganligida emas, muloqotmandlikning psixodinomikasida ijobiy qaralgan. Individual stilni izlashtirgandan so'ng o'zaro bog'langanlik umuman teskari

xarakterni aks etirdi, bunda esa individual xususiyatlarning garamanizatsiya jarayoni ko‘rina boshlanadi.

Inson individualligi qotib qolgan emas, balki u ijtimoiy-tarixiy rivojlanish xarakteriga ega. Bizga antropologiya fanidan ma’lumki, dastlab inson «**homo sapiens**» ko‘rinishida bo‘lgan. U ham o‘z individualligini qobiliyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda rivojlantirgan. Inson avlodi qoldirgan belgilarga nisbatan ham ijtimoiy jamiyatga shaxs individual munosabatini bildirish mumkin. Bola dunyoga kelar ekan u odamlar orasida yashaydi, o‘zaro munosabatga kirishadi. Yangi tug‘ilgan bolani biz individ sifatida ko‘rish imkoniyatiga egamiz. Bola tashqi ta’sirlar yordami bilan o‘zining individualligiga ega bo‘la boshlaydi. Bulardan kelib chiqqan xolda inson individualligiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: **Insonindividualligi** – bu kishining individual rivojlanish sharoiti va turg‘un omillarining birligini qamrab oluvchi ko‘p o‘lchovli va ko‘p darajali bog‘lanishlar, aloqalar sistemasidan iborat.

«**Homo sapiens**»- odamning yagonaligi, noyob ekanligi, boshqa jonzorlardan sifat jixatdan farq qilishini anglatadi. Olimlar odamning boshqa mavjudotlarning eng oliysidan ham oliy ekanligini ta’kidlaydilar. Rus olimi B.F.Porshnev o‘zining asarida odamning maymundan kelib chiqmaganligini isbot etgan. Ya’ni odam azaldan odam bo‘lgan, lekin u muayyan davrlarda xuddi hayvonlardek kun kechirgan. Ya’ni avtorning fikriga ko‘ra har bir turning buta sifat o‘z ildizi mavjud. Bir necha million yillar davomida shakllanib xozirgi xolatga kelgan.

Shunday bo‘lishi bilan birga inson individualligi psixologik jixatdan; **birinchidan** har bir kishining ichki dunyosi o‘ziga xosligi, qaytarilmasligi, yagonaligi bilan ajralib turadi. **Ikkinchidan** inson ichki dunyosi yaxlitligi, tugallanganligi bilan ajralib turadi, ya’ni yaxshi, yomon, olim, noshud, ikkichi va xokozo.

Faylaso‘flar va psixologlar inson shaxsi ma’lum chegaralarga ega bo‘lgan bir mamlakatdir deb ta’kidlaydilar.

Umumiy psixologiyada deyarli hamma psixologik jarayonlar tilga olinadi, lekin inson, guruxlar, irqalar o‘rtasidagi tafovutlar xaqida so‘z yuritilmaydi.

Xayotda esa odam bilan odam o'rtasidagi farqlarning borligi ularning ruxiyatida ham farqlar mavjudligidan dalolat beradi. Insonda psixika bor, shaxs bor. Shaxs ijtimoiy borliq. Psixika esa odamning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatdir. Shaxs asosan ijtimoiy mazmun bilan sug'orilgan. Inson bolasi ijtimoiy bo'lmagan muhitda shaxsga aylanmaydi, lekin psixikaga egaligicha qolaveradi. Ammo shaxsning shakllanishida psixika asos bo'lib xizmat qiladi. Psixik xususiyatlar asosan irsiy xisoblanadi. Demak, individuallikning shakllanishiga ham irsiy, ham ijtimoiy omillar ta'sir etadi.

Emotsional nuqtai nazardan olib qaralganda shaxs faoliyatida dastlab biologik motivlar ustunlik qilgan, filogenetik taraqqiyot jarayonida esa asta- sekinlik bilan psixologik xususiyatlar shakllangan. Ya'ni biologik ehtiyojlar ijtimoiy ehtiyojlarga aylanib boradi.

Ontogenezda individual tabiiy qonuniyatlar xayot jarayonida sekin – asta ijtimoiy psixologik motiv, ehtiyojlarga aylanadi, va nixoyat bola o'zining ijtimoiy muhitida shakllanadi va shu muhit maxsuliga ega bo'ladi.

Individual farqlar muammosiga birinchi ilmiy yondoshuvga nazar solsak, individuallik «Men» tushunchasining paydo bo'lishi bilan boshlanadi. «Men» tasavvurining paydo bo'lishi odamlar o'rtasida tafovutlarning paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Masalan: ibtidoiy odamlar o'zining kuchi bilan boshqalardan farq qilishini xis etgan va buni boshqalarga tan oldirishga harakat qilgan. Bugungi kunda kishining o'z-o'zini anglashi, «Men» ni bilishi davr talabi. O'zligini bilgan kishigina xayotda doim oldinda, muvaffaqiyatga erishib boradi. O'zligini anglagan odam o'ziga qiyoslab boshqalarga baxo bera oladi.

Odamlarga nom qo'yish «shamol», «tosh» individual farqlardan kelib chiqqan, ya'ni shamoldek kuchli, toshdek mustaxkam va xokozo. Frensis Galton «Irsiy daxo» nomli asarini 1969 yilda chop ettirgan va shundan keyin Londonda individual farqlarni o'rganadigan laboratoriyani tashkil etgan.


F.Galton ko'zning o'tkirligi, harakatlar tezligi va zexnni o'lchaydigan testlar yaratgan va taxlil qilgan. U juda ko'plab tajribalar o'tkazib, ma'lumotlar to'plagan va ularni qiyoslab odamlarning ba'zilar aqlan zaif bo'lishi, ba'zilar aksincha

aqlan o'tkir bo'lishini, ayrim kishilar ko'zining o'tkirligi, yoki asab tizimining kuchliligi bilan farq qilishini aniqlagan.

Emil Krepilin odamlarni farqlovchi xususiyatlarni 3 ga ajratgan; zexn, asab, ko'z o'tkirligi.

Individuallik qanday tuzilishga ega?

Individuallikning tarkibiy qismlari sifatida quyidagi shajarani ko'rsatish mumkin.



Bu kompleks (ko'pqirrali) shajara yaxlitlanganda individuallik vujudga keladi.

Inson individualligining etilishiga, rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ko'pqirraliligini xisobga olgan xolda V.S. Merlin bu tushunchani aniqroq ifodalash uchun «integral individuallik» atamasini kiritdi. Syu bilan birga u individuallik tushunchasida barcha tabiiy va ijtimoiy xususiyatlar integratsiyasini ko'rsatib o'tdi. Bunday yondoshishga ko'ra, inson individualligi bu uzluksiz tashqi va ichki o'zgarishlar sharoitida o'z yaxlitligi va o'z-o'ziga o'xshashlikni saqlab qoluvchi, yakka bita odamning aloxida turmush shakli (tarzi) bo'lib, u turmush tarzi doirasida muxtor sifatida, yakka va betakror biosistema (tabiiy-ijtimoiy tuzilma) tariqasida yashaydi va sa'yi-harakat qiladi. Bu borada V.M.Bexterevning bir fikrini

eslab o'tish joizdir; «SHaxs har doim va har erda biosotsial sharoitlarning maxsulidir».¹

Inson integral individualligining rivojlanishi, shakllanishi va etilishining mexanizmlarini ochish, shuningdek shu mexanizmlarni boshqarish uchun insonni tashkil qiluvchi barcha tarkibiy qismlar qanday o'zaro harakat, ta'sir qiladi, vositalanadi, o'zgaradi va integrallanishini bilishni talab qiladi. Bu fundamental vazifa nafaqat inson integral individualligining determinantlari hamma kompleksini chuqur, ko'pbosqichli, abstrakt analiz qilishni nazarda tutmasdan, balki inson individual xatti-harakati, xulq-atvorini tashkil qiluvchilari va tarkiblari o'rtasidagi turg'un qonuniyatlarning o'zaro aloqalarini izlashga yo'naltirilgan, ular o'rtasidagi o'zaro sa'iy-harakat xususiyatini konkret eksperimental tadqiqotlar asosida ochishni ham nazarda tutadi. Tabiiyki, bu kompleks vazifa insonni o'rganuvchi genetika, antropologiya, psixologiyadan tortib, to siyosiy iqtisod, falsafagacha bo'lgan ko'pgina fanlarning birgalikdagi izlanishlari bilan xal qilinishi mumkin. Bu muammo xal qilinishida B.M.Teplov, V.D.Nebilitsinlarning fikricha katta ilmiy yo'nalish - differensial psixofiziologiyaga berilishi kerak. Uning tadqiqot predmetini rasmiy (formal) sxematik (timsoliy) darajasida, ikkita aylananing kesishgan qismi sifatida tasavvur qilish mumkin. Ulardan biri bizdagi psixikaning individual variatsiyalari xaqidagi bilimlarimiz bo'lsa, ikkinchisi esa keng ma'nodagi inson biologik tuzilishining individual variatsiyalar yuzasidan bilimlarimiz simvoli ko'rinishida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

1.2. Individuallikni rasmiy–dinamik xususiyatlarini psixologik tadqiqotlarda o'rganilishi

SHaxs individualligi muammosini psixologiya fanida bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan: individuallikning psixofiziologik jihatdan (E.A.Golubeva, V.D.Neбылицын, T.A.Ratanova, T.A.Stroganova, B.M.Teplov va boshqlar);

¹Мерлин В.С. Очерк теории темперамента. 2-е изд. Перм, 1973.

individual farqlarning etiologiyasi (M.S. Egorova, N.S. Leytes, SB. Малых, T.M. Maryutina, T.A. Meshkova, E.A. Sergeenko, I.V. Ravich-Herbo va boshqalar); yaxlit individuallik (B.G. Ananov); individuallikning har xil darajalari munosabati (V.M. Rusalov, A.I. Krupnoe va boshqalar); integrallashgan individuallik (V.V. Belous, B.A.Vyatkin, B.C. Merlin va boshqalar); psixologik simptomokomplekslar (O.M. Dyachenko, P.P. Sagiev va boshqalar); individuallik psixodagnostikasi (E.M.Borisova, L.F.Burlachuk, K.M.Gurevich va boshqalar). Bundan ko‘rinadiki, rus olimlari tomonidan individuallik muammosining tadqiq etish borasidagi izlanishlar to‘rtta etakchi jabhalari bo‘yicha o‘rganilgan: 1) individuallik diagnostikasi; 2) individuallikning tuzilishi; 3) individuallik tipologiyasi; 4) individual tafovutlarning yuz berishi. Respublikamizda ham olib borilgan va borilayotgan izlanishlarning mazmunida ham aynan yuqorida sanab o‘tilgan individuallikning jabhalari aks etganligini guvohi bo‘linadi (M.Davletshin, E.G‘.G‘oziev, B.R.Qodirov, R.Z.Gaynutdinov va boshqalar). Biz mulohaza yuritish ko‘zda tutilgan mummo individuallikning diagnostikasi masalasiga qaratilgandir. SHaxs individualligini nazariy asoslashga bag‘ishlangan etarlicha ilmiy qarashlar va yondashuvlar mavjud. Ammo uning amaliy o‘rganish borasida mamlakatimiz psixologiyasida anchagina izlanish va ilmiy tajribalar salohiyatini oshirishga zarurat bor. Bu esa psixodagnostika amaliyotida shaxs individualligini o‘rganishga mo‘ljallangan metodikalarni mahalliy muhitga moslashtirish va ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun foydalanishga tayyorlashdan iborat.

Shaxs individualligini o‘rganish borasidagi metodikalarni tahlil etishda umumiy psixologiya va shaxs psixologiyasining qonuniyatlariga ko‘ra shaxs individualligini xarakterlovchi qobiliyatlar, temperament psixologiyasi va xarakter psixologiyasiga doir o‘lchash vositalariga murojaat etishimizga to‘g‘ri keladi.

Agar shaxs individualligini qobiliyatlar (umumiy qobiliyatlar (DJ.Raven, SFTI) va maxsus qobiliyatlar, kreativlik va qobiliyatlarga bilish jarayonlarini funksional o‘zaro aloqadorligini ta‘minlovchi intellektual tizimi sifatida o‘lchashga imkon beruvchi metodikalar (RAT (nutq-mulohazaga kreativlik testi

(L.G.Alekseeva, T.V.Galkina, A.N.Voronin)); individuallikni temperament xususiyatlari (temperamentning oliy asab faoliyati xususiyatlari bilan bog‘liqligi- Ya.Strelyauning “Temperamentning tuzilishi” so‘rovnomasi; temperamentning xarakterologik xususiyatlari sifatida – G.Yu.Ayzenkning “Ekstraversiya-introversiya, neyrotizmni o‘lchash so‘rovnomasi; N.N.Obozovning “Temperament tiplarini aniqlash metodikasi”; A.Belovning “Temperament formulasi” testi); shaxs individualligini xarakter psixologiyasi bilan bog‘lab o‘rganishda (R.B.Kettell (16PF), MMPI, G.Ayzenk shaxsni o‘rganish so‘rovnomalari, P.Kosta va R.Mak-Krae (NEO-PI-R (“Katta beshlik”) va boshqa so‘rovnomalar) sifatida diagnostika qilishda muammolarni o‘rganishga mo‘ljallangan metodiklardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.² Shaxs individualligi diagnostikasi borasida mavjud sanab o‘tilgan metodiklarning ayrimlarigina bizning muhitimizda qo‘llanilib kelinmoqda. Individuallik diagnostikasi uchun metodikalar yaratish, jahon psixologiyasida qo‘llanilib kelinayotganlarini moslashtirish masalalari mahalliy psixolog-olimlar oldiga yangi vazifalar yuklashi tabiiy.

Integral individuallik konsepsiyasiga asoslangan differensial psixofiziologiya maxsus ilmiy yo‘nalish sifatida individuallik muammosiga tegishli muxim savollardan biri; insonning biologik (tabiiy) va sotsial (ijtimoiy) xususiyatlarini o‘zaro bir-biriga o‘tishi va o‘zaro bir-biri bilan shartlanganligi qanday kechishini xal qilishga qaratilgan.

Insonni biologik nuqtai nazardan o‘rganuvchi fanlarning antropologiya, genetika, fiziologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasining so‘nggi muvaffaqiyatlari shuni ko‘rsatadiki; insonni rivojlanishning shunday oliy darajasiga chiqa olishiga asosiy sabab, u tug‘ilgandan shunday tana, aniqrog‘i biologik tuzilishga egaki, unda avvaldan universal, sotsial faoliyatning funksional rivojlanishi imkoniyatlari programmashtirilganligidir. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, insonning biologik tuzilishi uning darajasi, strukturasi, fiziologik protsesslarning aloxida

² А.И.Расулов, Индивидуалликнинг расмий-динамик хусусиятларини ўрганиш сўровномаси

xususiyatlari, funksiya va xolatlari, ularning funksiyalarni bajarish qonuniyatlari va boshqalarni bilish inson integral individualligini rivojlanish mexanizmlarini echishdagi muxim zveno, shu jumladan, individuallikning psixologik darajasi bo'lib xisoblanadi.

Inson individualligini psixofiziologik nuqtai nazardan o'rganishdagi konkret maqsadlarni quyidagi tarzda ifodalash mumkin: inson individualligining psixologik darajalarini ob'ektiv biologik asoslarini ochish yoki boshqacha qilib aytganda, individual psixologik farqlar darajasini hosil qiluvchi aloxida sistemada tashkil topuvchi biologik komponentlar va ularning xarakteristikalarini topishdan iborat.

Materiya rivojlanishining strukturaviy darajalari xaqidagi Y.A.Ponamaryovning qarashlaridan kelib chiqqan xolda, individual-psixik, individual-biologik munosabatda bir qator jarayonlarning mustaqil ketma-ketlik qonuniyati bo'yicha kechadi, ulardan har biri biologik (fiziologik) qonunlarga asoslanadi.³

Lekin bu jarayonlar ketma-ketligi, tuzilishi va ichki kompleksining strukturasi psixik qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Individual integrallikni taxlil etishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

1. Individuallikning ierarxik tuzilishga ega ekanligi tamoyili. Bunga ko'ra har qanday individual psixologik xususiyatlar ierarxik tuzilishga ega, ya'ni bita xususiyatning bir nechta simptomlari bor. Bitta simptom bita xususiyat bo'la olmaydi. Ya'ni har bir xususiyat bir nechta simptomlar kompleksidan tashkil topgan bo'ladi. Har bir psixologik xususiyat aloxida rivojlanishga va nisbatan mustaqillikka ega. Shakliy psixologik xususiyatlarning har birining diterminatsiyasi (sababi) bor va u aloxida o'zining rivojlanish xususiyatiga ega.

2. Invariantlik prinsipi. Shakliy psixologik xususiyatlar odamdan odamga ko'chadi. Kelib chiqishi bir xil bo'lganligi bilan tashqi muhit ta'sirida individual

Мерлин В.С. Очерк теории темперамента. 2-е изд. Перм, 1973.

psixologik xususiyatlar individuallikni qabul qiladi. Ma'naviy xususiyatlar yo'qolishi mumkin shakliy dinamik xususiyatlar esa insonga muxrlangan bo'ladi.

3. Munosabatlarning bir asosda boshqarilishi prinsipi (koordinatsiya vzaimodeystviya).

Shunday qilib, differensial psixofiziologiya o'zining tadqiqot predmetining uziga xosligiga ko'ra insonga ta'sir qiluvchi turg'un biologik omillar natijasida paydo bo'luvchi va shakllanuvchi individual psixologik farqlarning gurux yoki tasniflari yuzaga kelishi, etilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini aniqlaydi.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi juda murakkab jarayondir. Inson psixologlar ta'kidlaganidek biosotsial mavjudotdir. Shunday ekan Differensial psixologiya inson individualligining shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning o'rnini tadqiq etishda psixik rivojlanish sharoitlarini taxlil qilishning ilmiy asoslariga tayanadi. Biologik va ijtimoiy omillar birligi bir tomondan kishining psixik tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlari masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarining shuningdek oliy nerv tuzilishining o'ziga xosligi, ikkinchi tomondan esa faoliyatning ongli sub'ekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvorlarida masalan, axloqiy odatlar, xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Individual psixologik xususiyatlarning tarkib topishi va rivojlanishi muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy xarakterga ega. Shu bois bu muammoni xal qilishda psixologiyada bir biriga zid ba'zan esa bir-birini tuldiruvchi oqimlar yo'nalishlar yuzaga kelgan. Shulardan biri biogenetik konsepsiya bulsa ikkinchisi sotsiogenetik konsepsiya xisoblanadi. Individual psixologik xususiyatlarning tarkib topishini biologik tabiiy tug'ma omillarga bog'lab tushuntiruvchi biogenetik konsepsiya 19-asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan. Xozirgi kunga qadar ham individual xususiyatlarning tug'ma tabiati xaqidagi ta'lumot psixologiya maktablari asosini tashkil etmokda.

Mazkur ta'lumot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilanganligi uning biologik tuzilishiga tenglashtirilganligi psixik rivojlanish esa irsiy yul Bilan azaldan belgilanib inson

organizmiga joylashtirilgan. Shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlanadi.⁴

Mashxur amerikalik psixolog Eduard Torndayk o'quvchilarning «Tabiiy kuchlari» va «Tug'ma mayllari»ni psixik rivojlanishning etakchi omili qilib ko'rsatadi.

Avstriyalik psixolog K.Byuller bolalarning faqat aqliy taraqqiyotigina emas balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangan deb ta'kidlaydi.

Amerikalik pedagog va psixolog Dj.Dyui inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan extiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi deb ta'kidlaydi.. Bu extiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo'lib ba'zida uzgarishi yoki kanday bulsa shundayligicha namoyon bulishi mumkin deb xisoblaydi.

1.3. Individuallikni psixodiagnostik metodikalari

Odam xususiyatlarini o'lchash uzoq tarixga borib taqaladi. Xiromantiya, Fiziognomika ilm sifatida 1900 yillarda individuallikni o'rganib boshlagan va psixodiagnostik metodikalar yaratilgan. 1913 yilda Rossiyalik psixiatr G.N.Ribakov rang tomchilarini psixiatriyada qo'llagan. 1921 yilda G.Rorshax «Psixodiagnostika» deb nomlangan kitob chop etdi va proektiv metodikalarga asos soldi. A.Bine «Intellekt testlari», 1903-1908, 1911 yillarda Bine-Simon standart testlari Stenford universitetida ishlab chiqildi. Psixodiagnostik metodikalarning asosiy vazifasi individual farqlarni aniqlashdan iborat.

Intellektual testlar. Intellekt individual-psixologik farqlarni aniqlashdagi muhim ko'rsatgichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Intellekt intellektual testlar yordamida aniqlanuvchi intellekt ko'effitsienti (IQ) bilan identifikatsiya qilingan. Aytish joizki, bunday testlar qaysi madaniyatlarda ishlab chiqilgan bo'lsa, xuddi shu madaniyatdagi intellekt tushunchasini ma'lum

⁴ Белоус В.В. Проблема типа темперамента в современной дифференциальной Пси: Физиологии.-Психол 1981.

darajada aks ettiradi. SHu tufayli intellekt testlari eng avvalo milliy muhitga moslashtirilgan bo'lishi lozim.

Ko'pgina zamonaviy intellektual testlar asosan muvaffaqiyatli bilim olish uchun talab qilinuvchi formal (rasmiy) qobiliyatlarni yoki qobiliyatlar kombinatsiyasini o'lchayda. Intellektni testlashtirish orqali tekshirish Alfred Binening o'quvchilarni intellektual qoloqliklarini tekshiruvchi testni yaratganidan so'ng boshlangan. Intellektual testlarga quyidagi akademik kriteriyalar, ya'ni, maktabdagi baholari, o'quvchini keyingi sinfga o'tkazishni hal qilish, maktab ta'limini tugatish uchun kerak bo'lgan etarli ballarni olish kabi katta huquqlar berilgan. Ko'pgina intellektual testlar asosan verbal bo'lib, ularga ma'lum arifmetik masalalar, operatsiyalar, xotira, hukm chiqarish kabi fikrlashning tarkiblari kiritilgan.

Psixologlarning amaliyotga kirib kelishi, kadrlarni tanlash va professional muammolarni hal etishda qatnashishning kengayishi bilan professional qobiliyatlarni o'lchash uchun qo'shimcha testlarga nisbatan ehtiyoj tug'ildi. Natijada texnik, administrativ va boshqa qobiliyatlarni tekshiruvchi maxsus testlar yaratildi. Bir vaqtning o'zida intellekt tabiatini tekshiruvchi asosiy metod, faktor analiz (omiliy taxdil) texnikasiga taqaldi. Bu texnikaning mohiyati baholarning o'zaro korrelyasiyasining statistik tahlili asosida testlar bo'yicha keltirilgan mustaqil omillarning minimal sonini topish maqsadidan iborat. Bunday omil va qobiliyatlarga: nutqning tezligi va tushunish, miqdoriy munosabatlarni ajratish va arifmetik ko'nikmalar, idrok tezligi, fazoviy tasavvur va mexanik munosabatlarni tushunish kabilar misol bo'la oladi.

Egizaklar metodi. Egizaklar metodi, 1876 yilda bosmadan chiqqan F.Galtonning "Egizaklar tarixi tabiat kuchi va tarbiyasi mezonidir" nomli maqolasi bilan borliq, lekin bu metodning keng ko'lamda qo'llanilishi asrimizning 20yillariga to'g'ri keladi.

Izlanishlar egizaklarning 2 ta **monozigot** va **dizigot** turlari mavjudligini ko'rsatadi. Birinchisi monozigot (MZ) bo'lib, u bir tuxum xujayralarda rivojlanadi, bir sperma maxsuli, birinchi bo'linish bosqichida ikkita o'xshash

genetik organizm bir joyda ikkita embrional strukturaga (tuzilishiga) ega bo'lgan bir zigotadan tashkil topgan bo'ladi. Ikkinchisi dizigot (DZ) bo'lib, genlar nuqtai nazaridan oddiy aka-uka va opa singillar, ya'ni ikkita tuxum xujayralarida rivojlangan, ikkita sperma maxsuli va shunday ekan umumiy genlarning teng yarmiga egadir.

Egizaklar metodi:

- a) egizaklarni bir biridan ayirish metodi;
- b) juft egizaklar metodi;
- v) egizaklarni nazorat qilish metodlaridan iborat.

Ular haqida qisqacha to'xtalamiz, MZ egizaklarni ayirish metodi "**Irsiyat va muhit**" muammolari to'g'risidagi tajribalarda o'zining muhim ekanligini ko'rsatdi. Ba'zi bir sabablarga ko'ra bir-biridan ajratilgan ikkita o'xshash genotipli egizaklar turli xil muhitda tarbiya qilinadi. Shubxasiz, MZning bunday usuli ancha qiyin masala bo'lib, tekshirish natijalarida shuni ko'rsatadiki, bunday hollarda egizaklarning bir jufti tarbiya topgan muhit sharoitlarining real farqlarini ko'rsatib o'tish shart. Daniyalik psixogenetik N.Juel-Nelsonning o'n ikki juft bir biridan ajratilgan MZlarni tadqiq qilishi psixologlarda o'zgacha qiziqishi vujudga keltirdi, ayni vaqtda bu boshqa psixologik tahlillardan ajralib turadi.

Juft egizaklar metodi asoschisi psixolog R.Zazzodir. Bu metod asosini egiz sheriklarning o'zaro munosabatlarida psixologik o'ziga xoslikni chuqur o'rganish tashkil etadi. R.Zazzo juft egizaklar o'zlarini "**Kichik dunyolarini**" tez-tez ko'rsatib turishlarini, bir qator ichki xususiyatlarining xarakterligini, tashqi olam bilan o'zaro munosabatini, har bir juftlik a'zosi psixologik individuallikka ega ekanligini ko'rsatib o'tadi. Egizaklarda nutqiy rivojlanishdan ortda qolish, juft egizaklarni "Bir-birini yoqtirmasligi" kabi xollarni uchratish mumkin. Bu haqda A.Anastazining 1958 yidda chop etilgan kitobida ko'plab ma'lumotlar berilgan. MZ va DZ juftligi har bir egizakda bir juftning o'zaro tashqi ta'siri tengligini o'rganish – yuqori darajada baholash egizaklar metodining asosiy **postulati**

(haqiqatlik ayon bo'lmasa ham, isbotsiz asos qilib olinadigan qoida)ni tasdiqlashdan iborat.⁵

Egizaklarni nazorat qilish metodini A.Gazell tavsiya etgan. Bu metodga asosan bir xil MZ egizak tadqiqot uchun olishadi va shundan keyin har bir juftning biriga ta'sir qilinadi. Masalan, birinchisiga jismoniy, ikkinchisi esa o'z xolicha kuzatiladi. Bu tadqiqot orqali ular orasidagi farqlarni o'rganib boradi. Shu tariqa juftlikning bitta a'zosini turli xil usullarda o'rganish ular haqidagi optimal, ma'lumotlarni beradi. MZning bitta juftida mashqlar jadallik bilan, lekin kam muddat oralig'ida olib borilsa, mashqning harakatlantiruvchi funksiyasi bir muncha maxsuldor bo'lishini psixolog Myuller o'z tadqiqotlarida isbotlaydi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Individuallik xar bir insonning o'ziga xos psixik xususiyatli ko'rinishi bo'lib, u o'zining xayoti va faoliyati davomida shaxsda sub'ekt sifatida ishtirok etadi va ijtimoiy- tarixiy madaniyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Shaxs individualligini o'rganish borasidagi metodikalarni tahlil etishda umumiy psixologiya va shaxs psixologiyasining qonuniyatlariga ko'ra shaxs individualligini xarakterlovchi qobiliyatlar, temperament psixologiyasi va xarakter psixologiyasiga doir o'lchash vositalariga murojaat etishimizga to'g'ri keladi.

Ushbu bob yuzasidan xulosa qilar ekanmiz, mazkur bobda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini metodologiyasi, individuallik psixologik muammo sifatida, individuallikni rasmiy–dinamik xususiyatlarini psixologik tadqiqotlarda o'rganilishi, shuningdek, shaxs individualligi muammosini psixologiya fanida bir qator olimlar tomonidan o'rganilganligi, ularning nazariyalari, individuallikni psixodiagnostik bir qator metodikalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldik.

1. Белоус В.В. Проблема типа темперамента в современной дифференциальной Пси: Физиологии.-Психол 1981.

II-bob. Individuallikni rasmiy dinamik xususiyatlariga daxldor

so'rovnomalarning psixologik tavsifi

2.1.V.M.Rusalovning "Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlari

so'rovnomasi"ni savollari xususiyatlari

Mazkur holatni hisobga olgan holda rus olimi V.M.Rusalov tomonidan ishlab chiqilgan "Individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasini (OFDSI)" mahalliy muhitga moslashtirish qanday ijobiy natijalar berishi mumkinligi xususida to'xtalib o'tamiz.

Shaxs individualligini o'rganishga doir metodikalarning xususiyatlari bo'yicha sanab o'tganimiz singari "Individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi (IRDXS)" da(A.Rasulov va boshqalar) tomonidan anchagina ahamiyatga ega bo'lgan mezonlar ishlab chiqilganligini guvohi bo'linadi. Mazkur metodikaning genezisi muallifning "Temperament strukturasi (TS)" so'rovnomasiga borib bog'lanadi. V.M.Rusalov "TS" so'rovnomasida individuallikni temperament xususiyatlari asosida o'rganishga e'tibor qaratib, unda asab tizimining xususiyati va ularning sotsial muhitda namoyon bo'lishiga ko'ra o'lchash mezonlarini ishlab chiqqan edi. O'z navbatida muallif "IRDXS" metodikasida esa individuallikni yoritish uchun mezonlarni yanada boyitgan. Bu esa shaxs individualligining psixomotor, intellektual, asab tizimi xususiyatlari, emotsional va kommunikativ sohlariga tayanib o'rganish imkonini beradi. Metodikaning mahalliy muhitga moslashtirish masalalari bo'yicha dastlabki harakatlar O'zMU psixologiya kafedrasi tomonida amalga oshirilmoqda (A.Rasulov va boshqalar). Buning uchun metodikalarni moslashtirishning standart talablariga muvofiq ish olib borilmoqda. Metodikaning original varianti mahallilashtirish uchun tarjimasi amalga oshirilib, uning tahririga e'tibor qaratildi. Metodikaning mahallilashtirishga tayyorlangan varianti bo'yicha pilotaj tadqiqotlar universitet talabalarida o'tkazilmoqda.

Agar V.M.Rusalovning "Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi (IRDXS)" mahalliy muhitga moslashtirish nima berishi mumkin? Buning uchun so'rovnomaning tuzilishi to'g'risida izoh berib o'tish

lozim. Metodika shaxslilik xususiyatlarini yoritishga mo'ljallangan bo'lib, 150 ta savolni o'zida mujassamlashtirgan 13 ta shkaladan iborat.

V.M.Rusalovning "Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi" qayta ishlash uchun ko'rsatma:

U yoki bu shkalani ballarini hisoblab chiqish uchun kalitlar qo'llaniladi. Avvalo kalitda ko'rsatilgan ushbu shkala uchun zarur bo'lgan ba'zi javoblarni kodlab chiqish lozim. Ballarni hisoblash ushbu shkala bo'yicha hamma ballarni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Shuni esda tutish lozimki, nazorat shkalasi bo'yicha 18 ball yiqqan tekshiriluvchilar: o'z xulq-atvorini adekvat baholash kuchiga qobiliyatsiz shaxs sifatida chiqarib tashlanadi.

Shkalalari

Quyi ko'rsatkich.

(12-25bal)

Psixomotor soxa quvvatlilik.

Psixomotor faoliyatning tor doirasi, fikirlash tonusining quyi ko'rsatgichi. Jismoniy zo'riqishni istalmasligi, faoliyat jarayoniga bo'lgan e'tiborning sustligi, ishdan qochish harakatdagi passivlik.

Egiluvchanlik.

Katta jismoniy kuch talab qiladigan ishlarga bo'lgan moillikning yuqori darajasi, qo'rquv turlixil qo'l mehnat ishlaridan qochish, jismoniy faoliyatning ko'rgazmali usullariga intilish harakatlarning jonliligi.

Tezlik.

Psixomotorikaning tormozlanishi, qo'l mehnatini bajarishda harakat operatsiyalarining sust tezligi.

Emotsionallik.

O'ylangan motor faoliyatining va bu harakatning real natijasi o'rtasidagi ikkilanish natijasidagi befarqlik, tinchlanishni sezish jismoniy kuch talab

qiladigan ishlarda o'ziga bo'lgan ishonch. Jismoniy kuch talab etadigan ishlarni bajarmaslik yoki sifatsiz bajarganlikga nisbatan befarqlik.

Intelektual soxa

Quvvat

Intelektual imkoniyatlarning past ko'rsatgichi, aqliy bosimning istalmasligi jarayonga nisbatan kam e'tiborlilik va uning aqliy faoliyati bilan bog'liqligi intellektual qiziqishlarning tor doirasi.

Egiluvchanlik.

Fikirlashning jo'nligi muammolarni hal etishda steriotiplik yondashuvlik, apstrakt masalalarni hal etishdagi regitlik (hohish yo'qlik).

Tezlik.

Aqliy jarayonlar tezligining pastligi intellektual faoliyatni amalga oshirishdagi operatsiyalarni sekin bajarilishi.

Emotsionallik.

Kutilayotgan va real faoliyat natijalariga nisbatan befarqlik omadsizlik holatlariga sust emotsional reaksiya va uning intellektual faoliyat bilan bog'liqligi, o'ziga ishonch.

Komunikativ soxa (muloqotmandlik)

Quvvatlilik

Muloqotga bo'lgan ehtiyojning kamligi satsial passivlik, aloqalar doirasining torligi, ijtimoiy tadbirlarga qo'shilmaslik, (odamovulik o'zgalar uchun yopiq berklik).⁶

Egiluvchanlik. Yangi ijtimoiy aloqalarga kirishishdagi tayyorgarlikni past darajasi. ijtimoiy o'zaro harakatlar jarayonida o'zining har bir harakatini birma- bir o'ylash, bir turdagi aloqalarni saqlashga intilish komunikativ programmalarni organik to'plami.

Tezlik.

⁶ Русалов В.М. О природе темперамента И его месте в структура индивидуальни;свойств человека. Воп психология, 1985, № 1, с. 19-32.

Past darajadagi nutqiy faoliyatni sekin verballashtirish, nutqiy tormozlanish.

Emotsionallik.

Muloqotdagi omadsizliklarga nibatan sezgirlikning past darajasi, boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish jarayonidagi o'ziga ishonch va xursandchilik kayfiyati.

O'rtacha ko'rsatkichlar

(26,34 bal)

Egiluvchanlik.

Jismoniy mexnatning bittasidan ikkinchisiga o'tishdagi egiluvchanlik. harakat faoliyatining turli ko'rinishlariga hamda turli qo'l mehnati ko'rinishlariga nisbatan, o'rta darajali egiluvshanlik.

Tezlik.

Mator harakatli operatsiyalar jarayonidagi o'rtacha tezlik.

Emotsionallik.

Qo'l mexnatidagi omadsizliklarga nisbatan o'rta darajadagi sezgirlik Ko'rinishi. Odatiy intensivlikning jismoniy kuch talab qiluvchi ishlar paytidagi emotsional holatda nomoyon bo'lishi.

Intelektual soxa.

O'rtacha pog'onadagi intellektual imkoniyatlar, aqliy zo'riqish bilan bog'liq emotsional intilish.

Egiluvchanlik.

Normal aqliy egiluvchanlik, o'rtacha qiyoslash har xil obrazdagi intellektual formalarga.

Tezlik.

O'rtacha tezlik aqliy protsessual intellektual zo'riqishlar natijasida.

Emotsionallik.

Oʻrtacha emotsional zoʻriqishda omadsizlik berganda, aqliy zoʻriqish talab qilinishi.

Komunikativ soxa.

Normal muloqot “oʻrtacha” oʻzini atrofidagi shaxslar bilan yangi tanishuvga moyillik muloqotni oʻrtacha pogʻonasi.

Egiluvchanlik.

Muloqotga normal tayyorgarlik, oʻrtacha odamda uning haqiqiy intilish yangi shaxslar bilan muloqotchanlik.

Tezlik.

Verbal va muomalaning aktiv oddiy tezligi.

Emotsionallik.

Oʻrta intensivlik emotsional havotir muloqotda omad kulib boqmasa, shaxslararo munosabat haqiqiy shaxs sezuvchanlik emotsional xursand boʻlish va oʻziga ishonch jamiyat bilan muloqot boʻlganda.

Psixomotor soxa

(35-48 ball)

E R M

Harakatga nisbatan yuqori ehtiyoj, psixomotor aktivlikning keng soxasi, psixomotor faoliyatga nisbatan kuchli chanqoq, jismoniy mehnat tomon doimiy intilish, jismoniy kuchning ortigʻi bilan kechuivchi mushaklarning ish faoliyati.

Egiluvchanlik.

Harakat faoliyatining bir turidan ikkinchisiga oʻtishdagi yuqori egiluvchanlik, jismoniy faoliyatning turli usullari tomon yuqori intiluvchanlik harakatlarning maromiyligi.

Tezlik.

Psixomotor xulq atvorining yuqori koʻrsatkichi turli harakat faoliyatlarida yuqori tezlik.

Emotsionallik.

Qo‘l mehnatining kutilayotgan va real ko‘rsatkichlari orasidagi tafovut yuzasidan kuchli emotsional havotirlik. Jismoniy mehnat mahsuli haqida o‘z-o‘ziga doimiy tanqid.

Intelektual soxa.

ERI

Intelektual imkoniyatlarning yuqori darajasi o‘quv qobiliyatining yuqori darajasi, faoliyat tomon doimiy intiluvchanlik, bu aqliy bosim bilan bog‘liq bo‘ladi.

Egiluvchanlik.

Fikirlashning bir turidan ikkinchi shakliga o‘tishdagi yuqori egiluvchanlik intellektual shakillarning turli tumanligiga intilishga, masalalar echimiga ijodiy yondashuv.

Tezlik.

Intelektual faoliyatning yuzaga kelishida aqliy jarayonlarning yuqori tezligi.

Emotsionallik.

Aqliy mehnatdan kutilayotgan hamda real natijalar o‘rtasidagi farq yuzasidan kuchli emotsional havotirlik, ish yuzasidan kuchli bezovtalik. Bular aqliy bosim bilan bog‘liq bo‘ladi.

Komunikativ soxa

E.R.K

Muloqotga bo‘lgan yuqori ehtiyoj aloqalarning keng doirasi, odamlarga intilish, sotsial aloqalar o‘rnatishdagi engillik liderlikga intilish.

Egiluvchanlik.

Yangi ijtimoiy aloqalarga kirishishdagi yengillik, muloqot jarayonidagi o‘tishning va muloqot paytidagi impulslikning yengilligi, komunikativ programmalarining keng to‘plami.

Tezlik.

Yengil va bir maromli nutq verballashishning tezligi nutqiy faoliyatning yuqori tezligi.

Emotsionllik.

Sezuvchanlikning hamda ko'ngli bo'shlikning yuqoriligi. Bu holat ayniqsa muloqot paytidagi omadsizliklarda namoyon bo'ladi, ijtimoiy o'zaro munosabatlar jarayonida doimiy havotirlikning paydo bo'lishi, ishonchsizlik muloqot vaziyatidagi jizzakilik kuzatiladi.

Metodikaning shkalalari shaxs individualligini uchta soha bo'yicha yoritishga mo'ljallangan: psixomotor soha, intellektula soha, kommunikativ soha. So'rovnoma psixomotor erglik (PEr), intellektual erglik (IEr), kommunikativ erglik (KEr); psixomotor plastiklik (PP), intellektual plastiklik (IP), kommunikativ plastiklik (KP); psixomotor tezlik (PT), intellektual tezlik (IT), kommunikativ tezlik (KT); psixomotor emotsionallik (PE), intellektual emotsionallik (IE), kommunikativ emotsionallik (KE) va nazorat shkalalaridan (NSH) iborat. Metodikaning bir qator afzal jihatlari mavjud. Uning birinchi ustuvor tomonida ⁷natijalarning xolisligini ta'minlashga qaratilgan nazorat shkalasining (NSH) mavjudligi. Ushbu NSH natijalar qayta ishlangandan ularni tadqiqot maqsadlariga foydalanish uchun yaroqli yoki yaroqli emasligini hamda tekshiriluvchilarning xulq-atvorini adekvat baholagan yoki baholanmaganligini ajratib beradi. Ikkinchi afzalligi, shaxsning individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlarini eng muhim 6 ta indeksini aniqlab beradi. Indekslar shaxs faollik darajasiga yo'naltirilgan:

1. Psixomotor faollik indeksi (PFI). Ushbu indeks psixomotor sohadagi faollik shkalalari yig'indisiga teng: $PFI = PEr + PM + SM$.
2. Intellektual faollik indeksi (IFI). Bu indeks intellektual sohadagi faollik shkalalari yig'indisiga teng: $IFI = ERI + PI + SI$.
3. Kommunikativ faollik indeksi (KFI). U o'zida kommunikativ sohadagi faollik shkalalari yig'indisiga teng: $KFI = ERK + PK + SK$.

⁷ Русалов В.М. О природе темперамента и его месте в структуре индивидуальности: свойств человека. Воп. психология, 1985, № 1, с. 19-32.

4. Umumiy faollik indeksi (UFI). Bu indeks esa uchchala sohadagi faollik shkalalarining yig'indisiga teng: $UFI=IPA+IIA+IKA$.
5. Umumiy emoyionallaik indeksi (UESH). Ushbu iedeksi uchchala sohadagi emotsional shkalalarni yig'indisidan iborat: $UESH=EM+EI+EK$.
6. Umumiy moslashuvchanlik indeksi (UMI). Bu indeks umumiy faollik va umumiy emotsional indekslarining farqiga teng: $UMI=UFI-UEI$.

Uchinchi afzalligi, so'rovnoma yordamida temperament tiplarining differetsiallashtirish imkoniyatiga egaligida. Differensiallashtirish asosida 9 temperament tiplari aniqlanadi va ular asosida zarur sharhlar beriladi. To'rtinchi afzalligi, umumiy temperament tiplarini aniqlash xarakteriga egaligidir.

Metodikaning ushbu yutuqlarini inobatga olib mahalliy muhitga moslashtirishni ta'minlash orqali undan shaxsning individualligini yoritish asosida kadrlarni ishga saralashda, shaxs psixologik qiyofasini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlar olib borishda va shaxs kamolotini baholashda tatbiq etish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bu so'rovnoma inson hayot faoliyati davomida, shakllanuvchi individual psixologik farqlarning, tug'ilishi va rivojlanishi turlari hamda ularning biologik faktorlarga nisbatan turg'unligini aniqlaydi. So'rovnoma insonlarning aqliy mehnatdan kutilayotgan hamda real natijalar o'rtasidagi farq yuzasidan kuchli emotsional havotirlik, ish yuzasidan kuchli bezovtaliklar to'g'risida xulosa chiqarishga yordam beradi.

Quyda keltirilgan savollarning barchasi bizninig muxitga moslashtirilgan bo'lib, temperament xususiyatlarimizni ochib beradi. Sinaluvchilar o'z natijalariga qarab, 3 ko'rsatkich bo'yicha baholanadi. Ya'ni bular quyi ko'rsatkich (12-25 ball), o'rtacha ko'rsatkichlar (25-34 ball), va yuqori ko'rsatkich (35-48 ball)ni tashkil etadi.

Ushbu so'rovnoma xali bizning muxitda ko'p o'rganilmaganligi sababli, biz o'zbek muxitida sinab ko'rishga harakad qildik.

Individual psixologik xususiyatlar deganda shaxsning bir biridan farqini ko'rsatuvchi quyidagi xususiyatlari tushuniladi: temperament, xarakter, qobiliyat.

Psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy jihatdan shartlangan dinamik ko'rinishlari majmui kishining temperamenti deb ataladi.

Qobiliyat va uning xillari. Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko'nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Shu xususiyatlar mazkur bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli bo'ladi. Malakalar, ko'nikma va bilimlarga nisbatan qobiliyatlari qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi.

2.2. Ya.Strelyau "Temperament tuzilishini o'rganish" so'rovnomasi

Bu so'rovnoma nerv sistemasining asosiy uch xarakteristikasi tipini o'rganishga yo'naltirilgan: Hissiyotning qo'zg'alish darajasi, Tormozlanish kuchi darajasi, harakatlanish kuchi darajasi. Bundan tashqari qo'zg'alish va tormozlanish darajasini kuchi bo'yicha meyorini ko'rsatadi.

Test 4 shkaladan tashkil topgan 134 ta savollardan iborat. Sinaluvchilarga savollar ketma-ket o'qib beriladi va ular xa yoki yo'q deb javob beradilar. Agar javob berishga qiynalsalar (?) belgisini qo'yadilar.

Ushbu so'rovnoma 4 shkaladan tashkil topgan va bular quydagilar.

1. Qo'zg'alish kuchi (F_q)
2. Tormozlanish kuchi (F_T)
3. Harakatchanlik kuchi (F_h)
4. Muvozatlanish kuchi $A_q F_T (F_h)$
5. So'rovnoma natijalari taxlil qilgandan keyin har bir shaxsni to'plagan ballariga qarab xulosalar chiqariladi. Bunga ko'ra <42 -balldan past bo'lsa ushbu xususiyatning yaxshi mujassamlashmaganligini ifodalaydi.
6. <42 -balldan katta bo'lsa ushbu xususiyatning yaxshi mujassamlashganligini ifodalaydi.

7. $(F_q) < 42$, melanxolik

8. $(F_q) > 42$, psixologik faoll, ko'ra uzoq vaqt davomida barqaror mehnat qila olish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy mehnatni bajarishga ancha mas'uliyatli.

9. Muvozanatlashganlik kuchi: $Aq F_h/(F_q)$

10. Agar $F_h/(F_q)$ ning qiymati 1 ga teng bo'lsa shunchalik muvozanatlashganlik yuqori.

11. 0,85-1,15 oralig'idan muvozanatlashganlik

12. Agar ushbu chegaradan chetga chiqsa yoki 0,85 past bo'lsa bu toifa odam

13. qo'zg'alishga nisbatan muvozanatsiz,

14. 1.15-muvozanatsiz tormozlanish etakchilik qiladi.

Boshqariluvchi temperament nazaryasi (B T N). Bu so'rovnoma Yan Srilyayu tomonidan Pavlov g'oyasi asosida ishlab chiqilgan, g'oya asosida individning atrof muxitga ko'nikishida temperament kata ro'l o'ynaydi, bundan tashqari asos bo'lib D. Xebboning hissiyotning optimal ko'rinishi darajasi bo'lgan. Boshqariluvchi temperament nazaryasiga binoan temperament strukturasida reaktivlik (individning his qilish va chidamliligi yoki ishga layoqati) va aktivligi buning ko'rinishi harakatning o'zaro almashinuvida kuzatiladi (aniq maqsadli harakatlar) ta'sirning o'lchovi bo'yicha.

Stirilyayu boshqariluvchi temperament nazaryasi bo'yicha isbotlanmagan holatlarni belgilab ko'rsatadi. Misol uchun nisbiy barqaror individ mavjud bo'lib xulq xarakteristikasi bo'yicha asosiy ikki kategoriyaga asoslanadi. Intinsivligi (hulq atvorni faol shakli) va vaqt (vaqtincha hulq atvor ko'rsatkichlari)

Odamlar va hayvonlarning hati harakatlari qanchalik o'ziga xos bo'lmasin barcha sut emizuvchilar intinsiv va vaqtincha kategoriyaga xarakter sifati qaratilgan bo'ladi. Shunday qilib temperament hayvonlarda va odamlarda ham o'rindir.

Temperament xarakteristikasi bu biologik evalutsiya mahsuludir va uning genitik asosi bo'lishi lozim. U o'z o'rnida psixologik xarakteristika orqali individning temperametdagi farqini belgilaydi.

2.3. Mayers-Briggs tipologik so'rovnomasi

O'sib kelayotgan avlodga to'g'ri yo'l ko'rsatish hamda ularning "o'z qobiliyati, intilishlariga mos, hayotda o'ziga munosib o'rin" topishlarida psixologlar tomonidan ham ko'plab ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilmoqda. "Vazifa to'g'ri anglansa, orzuga etishmoq oson kechadi" deganlaridek, biz ham shu jumladan, o'z oldimizga zamonaviy psixologik metodikalarni milliyalashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, yoshlarning shaxs jihatlarini, yo'nalganliklarini aniqlash va ularga kerakli yo'llanmalar berishni vazifa qilib qo'ydik.

MDH da xorijiy testlar, keng qo'llanilishiga qaramasdan, kamdan-kam hollarda bu testlar jiddiy ilmiy talablarga javob beradi. Bugungi kunda bizda qo'llanilayotgan ko'plab xorijiy testlarni, to'g'ridan-to'g'ri foydalanuvchi-psixologlarga tavsiya etib bo'lmaydi. Ularni qo'llashdan olinadigan natijalari esa, aksariyat hollarda konkret, tadqiqotda ko'zda tutilgan ko'rsatgichni berdi. Uning oqibatida tadqiqotdagi xolislik pasayadi.

Stimullarni o'zgartirishga imkoniyati bo'lmagan proektiv metodikalarning moslashtirish ishlari nihoyatda murakkab hisoblanadi. Bu gap verbal testlarga ham tegishlidir. Sovet psixodiagnostikasida ham, shaxs so'rovnomalarining adaptatsiyasi murakkab muammolardan biri sanalgan.

Shunga qaramay, K.G.Yung nazariyasiga asoslanib amerikalik olimlar tomonidan yaratilgan va Mayers-Briggs metodikasi, deb nom olgan so'rovnomani o'zbek tiliga tarjima qilib, barcha ilmiy talablar asosida milliy muhitga moslashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu metodika 94 savoldan iborat bo'lib, ular 8 ta shkalada mujassamlashtirilgan. Savollar mazmunan mijozga tegishli shaxs xislatlarini aniqlashga qaratilgan. Bu metodikaning savollari o'zbek

tiliga o'girilgandan so'ng, ekspretlar guruhi rus varianti bilan mazmunan moslik darajasi ko'rib chiqdi va tegishli tahririy o'zgartirishlar kiritildi.

Moslashtirishning muhim talablaridan biri ushbu metodikaning mazmuni va yo'nalishiga mos keladigan boshqa metodika natijalari bilan qiyoslash kerakligidir. SHu ma'noda biz O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining maxsus veb saytida e'lon qilingan "Sizning psixologik qiyofangiz" deb nomlangan metodikadan foydalanishni rejalashtirdik. Ushbu metodika ham mazmunan Mayers-Briggs metodikasiga to'g'ri keladigan 8 shkaladan iborat bo'lib, boshqacha usulda va boshqacha savollar orqali ma'lumot olishga qaratilgan ekan.

1950 yilda Aqshlik olim Katerina Briggs va uning qizi Izabel Mayers ularga qo'shimcha ravishda yangi shkalani, ya'ni "qabul qilish — baholash"ni kiritadi.

Mayers-Briggsning tipologik indikatori (MBTI) energiya zahirasini to'ldirishning ikki har xil usuli (ekstraversiya — introversiya shkalasi – E-I), axborot yig'ishning qarama-qarshi ikki usuli (sensorik — intuitiv shkala – S-N), qaror qabul qilishning ikki usuli (fikrlash va his qilish – T-F) va tashqi olam bilan aloqani tashkil etishning ikki usuli (qaror idrok – J-P)ni aniqlashga asoslanilgan. Shunday qilib, moyilliklarning to'rt asosiy shkalasi mavjud. Har bir kishi o'ziga xos xususiyati (imkoniyati)dan kelib chiqqan holda, ana shu shkalalardan birida muayyan o'rinni egallaydi va qarama-qarshi juftliklardagi u yoki bu qutbni tanlaydi. Har bir qarama-qarshi juftlik bo'yicha moyillik (afzallik)lar kombinatsiyasi xulq-atvorning 16 tipidan birini anglatadi. Chunki u insonning o'ziga xos xulq-atvorini bildiradi.

So'rovnoma mualliflarini insonlarning individual farqlarini tushuntiruvchi va xarakterlovchi psixologik vositani yaratish qiziqtiradi. Ammo bu psixologik vosita insonning o'ziga xos moyilliklar haqidagi nazariya (Yung g'oyasi) ga to'la mos bo'lishi lozim. Ana o'shandagina insonlarning individual o'xshashliklari va farqlarini ishonchli ravishda aniqlash va olingan natijalarni amaliyotda qo'llash mumkin.

Mayers-Briggs tipologiyasi boshqa tipologiyalarga qaraganda qator afzalliklarga ega. Bunda odamlar "norma" yoki "patologiya" shkalasi bo'yicha

qiyoslanmaydi va shaxs tiplarining birortasi boshqalaridan afzal hisoblanmaydi. Ushbu ijtimoiy-psixologik tipologiya, boshqa psixologik tipologiyalardan farqli o'laroq, psixologik sifatlarning ijtimoiy namoyon bo'lishini o'rganishga imkon beradi. U xulq-atvorning turli tiplarini, ya'ni odamlarning xulq-atvori xususiyatlari(insonning u yoki bu hayotiy vaziyatda o'zini qanday tutishi)ni tavsiflaydi. Bunda shaxsiy sifatlarni shunchaki aniqlash emas, balki olingan natijalarni amaliy qo'llash muhim hisoblanadi.

MBTI so'rovnomasining asosiy qoidalari:

- So'rovnoma yordamida qiziq va muhim xulq-atvor stereotiplari aniqlanadi, bu insonlarni va ularning o'zaro munosabatlarini tushunish uchun foydalidir;
- Axborotlarni qabul qilish va qaror chiqarishdagi individual farqlar aniqlanadi;
- Bu test emas, balki ko'rsatkich(indikator) hisoblanadi va bunda “to'g'ri” yoki “noto'g'ri” javoblar bo'lmaydi;
- nazariyada ikki qismga ajratish g'oyasi(dixotomiya) ilgari suriladi, shuning uchun MBTI da psixometrik ko'rsatkichlardan foydalaniladi;
- MBTI shkalalari mustaqil emas, ular ʻirtasida spetsifik dinamik munosabatlar mavjud;
- nazariyada ham, tiplar tavsifida ham shaxsning rivojlanishi butun umr davom etadigan jarayon sifatida qaraladi;
- tip – bu har xil psixik jarayonlarni tavsiflash uchun qulay usul(axborotni qabul qilish, idrok etish va baholash).
- “yaxshi” yoki “yomon” tiplar yo'q, ularning har birining o'ziga xos kamchiligi va afzalliklari bor;
- to'rt psixik jarayon (S, N, E, F) va to'rt holat yoki yo'nalganlik(E, I, J, P) mavjud bo'lib, ular to'rtta qarama-qarshi juftlikni tashkil etadi: S-N, E-F, E-I, J-P;
- har bir respondent barcha jarayon va holatlardan foydalanadi, lekin juftlikdagi “qutblar”dan birini tanlashga moyil bo'ladi yoki afzal hisoblaydi;
- natijalarni talqin etishda har bir elementning namoyon bo'lishiga aniq misollar keltiriladi;

— MBTI shkalalari tayanch psixik funksiyalar axborotni qabul qilish va baholashga daxldor bo'lib, ular har qanday xulq-atvorda gavdalanadi. Shuning uchun so'rovnomaning amaliy qo'llanilish sohasi ancha keng.

MBTI so'rovnomasining qo'llanilish sohalari:

MBTI mansabga ko'tarilish va kasbga yo'naltirish muammolarini hal etishda quyidagilar yordam beradi:

- shaxsni ta'lim yo'nalishi va kasb tanlashga yo'naltirish;
- axborotlarni qabul qilish va baholashning afzal sanalgan usullaridan foydalanish imkoniyatini aniqlash;
- hamkorlar bilan ish yuzasidan fikr almashish;
- xodimlar o'rtasida topshiriqlarni samarali taqsimlash;
- jamoa a'zolarining ish bo'yicha eng maqbul o'zaro munosabatlarini belgilash.

MBTI-individual va oilaviy maslahatlarda :

- turli moyillik(afzal bilish)ning yaxshi jihatlari va ustuvorliklarini mijozga tushuntirish;
- shaxsiy o'ziga xoslikni rivojlantirish va tevarak-atrofdagilar bilan muloqot qilish usullarini takomillashtirishga amaliy yo'l tanlash;
- axborotlarni qabul qilish va baholash usullarini rivojlantirish yo'llarini shaxsga tushuntirish va shu asosda uni o'z hayotini belgilashga o'rgatish;
- turli odamlar xulq-atvoridagi o'xshashlik va farqlarni tushuntirish; otalarni farzandlari qanday bo'lsa, ularni shundayligicha qabul qilishga o'rgatishda va boshqa ishlarda yordam beradi(bu ayniqsa ota-ona va farzandlar turli tiplarga tegishli bo'lsa muhimdir).

Mayers-Briggs metodikasi bilan tanishish shaxsni o'zining kuchli tomonini anglashga va ulardan to'la foydalanishga o'rgatadi, inson xatti-harakatining pinhoniylarini jihatlarni anglashga, muloqotga kirishadigan odamlarning ko'ngliga yo'l topishga imkon beradi.

Mayers-Briggs so'rovnomasi 94 banddan iborat. Respondentlar taqdim etilgan ikki javob, ba'zi holda uch javobdan birini tanlaydi. Savollarning bir qismi

inson xulq-atvorining turli hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'lishini tavsiflaydi (masalan: Kechki bazmlar sizga: a) goho zerikarli bo'ladi; b) doimo xursandchilik bag'ishlaydi). Savolning qolgan qismlari – tushunchalar juftligidan iborat (masalan: a) yaratmoq; b) qurmoq). Respondent (so'rovnoma ishtirok etayotgan shaxs)ga maxsus javoblar varaqasi beriladi. U unda o'zi tanlagan javobni belgilaydi.

Har bir javob variantiga mos qiymat belgilangan (0, 1 yoki 2 ball). Natijalarni qayta ishlashda shkaladagi har ikkala qutb ballari hisoblanadi (ya'ni E, I, S, N, T, F, J, P uchun alohida-alohida). Masalan, agar respondentning E bo'yicha ballari yig'indisi I bo'yicha ballari yig'indisidan katta bo'lsa, u ekstravert sifatida tasniflanadi. Ya'ni u ko'p vaqtini ekstravert sifatida o'tkazadi. Faoliyatning ekstravertlashgan turini afzal biladi va hayotning turli sohalariga ehtiyoj sezadi. SN shkalasi bo'yicha N ga moyillik, respondentning sensor qabul qilishga qaraganda intuitiv idrok qilish usulini afzal bilishini ko'rsatadi. Agar moyilliklar bo'yicha aniqlangan ballar yig'indisi kichik bo'lsa, respondentning tipologik xarakteristikasi unchalik aniq bo'lmaydi. Umuman, harf moyil yo'nalishini, sonlar esa uni amalga oshirish darajasini ko'rsatadi. Shunday qilib, miqdoriy ko'rsatgich respondentning xulq-atvorida u yoki bu moyilning qanchalik kuchli namoyon bo'lishi haqida tasavvur beradi. Lekin ushbu moyilning rivojlanganlik darajasi haqida mulohaza yuritishga imkon bermaydi.

Tip formulasi to'rt harfdan iborat – har bir shkalaga bittadan harf (masalan, ESTJ, INFP tiplari). Bu har bir tipni ixcham ta'riflash usulidir. Tip formulasi moyillikni quyidagicha ifodalaydi: birinchi harf — E yoki I (ekstraversiya yoki introversiya), ikkinchi harf – S yoki N (sensorika yoki intuitsiya), uchinchi harf – T yoki F (fikrlash yoki sezgi), to'rtinchi harf – J yoki P (baholash yoki idrok etish).

Mualliflarning fikricha, MBTI talqini psixologning respondent bilan muloqoti (dialogi) ni taqozo etadi. Psixologning asosiy vazifasi – respondentga o'zi haqidagi bilimlari asosida psixologik tipini aniq tavsiflashga yordam berishdir. Psixolog bunda shaxs tiplari nazariyasi bo'yicha mutaxassis sifatida unga maslahat beradi, xolos. Odatda, bunday vaziyatlarda taxminan 75 % respondent o'zining natijalaridan qoniqish hosil qiladi. Bunda respondent bilan xulq-atvordagi

moyilliklarning hayotiy vaziyatlarda qanday namoyon bo'lishi haqida suhbat ytkaziladi.

Birorta ham metodika shaxsning butun murakkabligi yoki uning xulq-atvorini to'liq oydinlashtirib bera olmaydi. MBTI natijalarini har doim ham ishonchli deb bo'lmaydi. SHu bois, respondentga uning so'rovnoma natijasida aniqlangan psixologik tipini taxminan quyidagi tartibda birgalikda muhokama qilish taklif etiladi: "Mana, so'rovnoma natijalari. Sizningcha, bu qanchalik to'g'ri?"

MBTI so'rovnomasi natijalarining ishonchliligi, boshqa so'rovnomalardagi kabi, savollarga qanchalik "to'g'ri" javob berilganiga bog'liq. Ba'zi hollarda shaxs aniqlangan tipining izzat xarakteriga mos ekanini darhol tan oladi. Bunday respondentlar bilan tipning namoyon bo'lishiga doir misollarni muhokama qilish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha ko'proq suhbatlashish kerak. Ba'zi shaxslar esa o'z tipiga nisbatan kuchli shubhada bo'ladi(ishonmaydi). Shuning uchun ular Mayers-Briggsning tipologik so'rovnomasi natijalarini talqin etish bosqichlarida olingan ma'lumotlar bilan tanishtirilishi lozim. Bu ma'lumotlar ularga o'zining ko'proq nimaga moyil ekanini aniqlashga va mos psixologik tipini topishga yordam beradi.

Mayers-Briggs metodikasi bilan tanishish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin: uning kuchli tomonlarini, ya'ni inson xulqidagi "yashirin mexanizm" larni tushunish, motivatsion echimlarni to'liqroq ishlatishga, odamlar bilan o'zaro aloqada, ularga "kalit" topishga yordam beradi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Ushbu bob yuzasidan xulosa qilar ekanmiz, mazkur bobda individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlariga daxldor so'rovnomalarning psixologik tavsifi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Mazkur holatni hisobga olgan holda ushbu bobda rus olimi V.M.Rusalov tomonidan ishlab chiqilgan "Individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasini (OFDSI)" mahalliy muhitga moslashtirish qanday ijobiy natijalar berishi mumkinligi xususida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek yuqorida V.M.Rusalovning "Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi qayta ishlash uchun ko'rsatma va metodikaning shkalalari tavsifi ham bayon etilgan. Bundan tashqari ushbu bobda individuallikka daxldor yana bir qator Y.Strelyau "Temperament tuzilishini o'rganish" so'rovnomasi hamda Mayers-Briggs tipologik so'rovnomasi haqida ham batafsil ma'lumotlar keltirib o'tdik. O'ylaymizki ushbu metodikalar mahalliy muhitha to'la ravishda moslashtirilgandan so'ng mutahassislar uchun shaxs individualligini o'rganuvchi eng oson va qulay metodikalar sifatida amaliyotga tatbiq etiladi.

III BOB. INDIVIDUAL-DINAMIKLIKNI O'RGANISHGA DOIR SO'ROVNOMLARNING TATBIQ ETISH BO'YICHA EMPIRIK NATIJALARI

Biz oldingi boblarda individual-dinamik xususiyatlar va ularning o'rganishga yo'naltirilgan so'rovnomalarning nazariy –metodologik va uslubiy tavsiflariga e'tibor qaratdik. Bu esa tadqiqot maqsad va vazifalarining bir jihati edi. Biz tomonimizdan amalga oshirilayotgan tadqiqotning ikkinchi jihati individual-dinamiklikni o'rganish so'rovnomalarini amaliy tatbiq etishga e'tibor qaratishdan iborat. Biz so'rovnomalarni qo'llash bo'yicha olib boradigan ishlarimizni ikki metodika asosida amalga oshiramiz:

3.1. V.M.Rusalovning "Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlari so'rovnomasi" so'rovnomasi tatbiq etish natijalari

3.2. Ya.Strelyauning Temperament strukturasini o'rganish so'rovnomasi
Metodiklarni tatbiq etish natijalarini alohida paragraflar bo'yicha tahlil qilamiz.

3.1. V.M.Rusalovning "Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlari so'rovnomasi" tatbiq etish natijalari

V.M.Rusalov so'rovnomasi tatbiq etishdan oldin uning amaliyotda foydalanish va mutaxassis faoliyatida yengillik tug'dirish maqsadida ishni metodikaning respondentlar tomonidan javob berish va mutaxassis tomonidan natijalarni qayta ishlash sohasini takomillashtirdik. So'ngra uni tatbiq etdik. So'rovnomani qo'llanish jihatlaridagi optimallashtirish jarayoni tadqiqot natijalarini qayta ishlashda vaqt tejamkorligiga erishishimizni ta'minladi. Biz ushbu paragrafda metodikani qo'llashdan olingan natijalar sharhiga e'tibor qaratgan holda uning individual-dinamik xususiyatlarni aniqlashdagi ahamiyatini yoritishga erishamiz. So'rovnomani qo'llash barobarida tekshiriluvchilarning xususiyatlarni bir necha jabhada o'rganishga erishish mumkinligini guvohi bo'lish mumkin ekan. Bizning tadqiqot ob'ektimiz talabalar bo'lganligi sababli so'rovnomaning mazmunini tashkil etuvchi mulohazalar ham ularning faoliyat

xususiyatlari muvofiq tuzilgan. So‘rovnomaning natijalarini qayta ishlashdan olingan dastlabki bosqich natijalarini statistik usullar yordamida qayta ishlandi va qiymatlarning ishonchlilik darajalari aniqlandi. V.M.Rusalov so‘rovnomasining natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Talabalarning V.M.Rusalovning « Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlari so‘rovnomasi » metodikasi bo‘yicha natijalar

	Umumiy		Jins	Xususiy		t
	X	σ		X	σ	
ERM	28,52	5,296	qizlar	26,62	5,094	-3,400***
			qizlar	30,3	4,343	
ERI	30,65	4,723	yigit	29,34	4,332	-2,857**
			qizlar	32,65	4,561	
ERK	28,35	4,791	yigit	27,55	4,38	-1,465
			qizlar	29,41	4,99	
PM	30,38	6,232	yigit	28,75	6,58	-1,537
			qizlar	31,34	5,83	
PI	27,97	5,768	yigit	25,96	5,02	-2,874*
			qizlar	29,58	5,567	
PK	28,48	5,982	yigit	27,65	5,23	-2,112*
			qizlar	30,55	6,39	
SM	31,68	6,325	yigit	30,24	6,28	-2,082*
			qizlar	34,06	5,98	
SI	29,55	5,772	yigit	27,82	5,83	-2,615**
			qizlar	31,93	5,68	
SK	28,50	4,296	yigit	27,37	3,84	-2,744**
			Qizlar	30,03	4,10	
EM	26,81	5,844	yigit	26,06	5,40	-1,260
			qizlar	28,20	6,28	
EI	28,91	5,064	yigit	28,48	5,89	-,77
			qizlar	29,58	4,34	
EK	26,32	6,222	yigit	26,06	5,71	-,907
			qizlar	27,75	7,18	

NSH	15,74	3,219	yigit	15,82	3,93	-,303
			qizlar	16,10	2,61	

*** $r \leq 0,001$; ** $r \leq 0,01$; * $r \leq 0,05$

Tajribaning birlamchi natijalari umumiy hamda talabalarining jinsiy tafovutlari bo'yicha o'rganishga e'tibor qaratildi. So'rovnomaning birinchi shklasi psixomotor erglik (ERM) bo'lib, u bo'yicha tekshiriluvchilar o'rtacha qiymatga ega bo'ldilar. Bu talabalarning muskul tonuslari me'yorda ekanligi, odatdagi faol harakat, jismoniy zo'riqishlarga nisbata o'rtacha intiluvchan, o'rtacha muskul harakatlariga qobiliyatli ekanligidan dalolat beradi (28, 52);

Ikkinchi shkala shaxsning intellektual sohasini ifodalab, u emotsional intellekt (ERI) sohasi hisoblanib, ushbu mezon bo'yicha ham talabalarning natijalari o'rtacha darajada ekan (30.65): intellektual imkoniyatlarning o'rtacha ekanligi, aqliy zo'riqishlar bilan bog'liq faoliyatga xayrixohlik ham o'rtacha ifodalanmoqda. Shuningdek, tekshiriluvchilarning kommunikativ erglik (ERK), psixomotor plastiklik (PM), intellektual plastiklik (IP), kommunikativ plastiklik (KP), psixomotor tezlik (SM), intellektual tezlik (SI), kommunikativ tezlik (SK) va psixomotor emotsionallik (EM), intellektual emotsionallik (EI), kommunikativ emotsionallik (EK) bo'yicha ham tekshiriluvchilar o'rtacha o'kratkichlar bilan cheklanganlar (2-jadval). Bizning tadqiqot natijalarimizdan qoniqishimiz va olingan miqdoriy ko'rsatkichlarning ahamiyatini nazorat shkalasi (NSH) me'yori bilan bog'liqdir (15,74). Tekshiriluvchilar NSH bo'yicha me'yordagi hamda o'zining faoliyati va xulq-atvorini adekvat baholashga moyilliklaridan dalolat berdi.

Metodika natijalariga ko'ra tekshiriluvchilarning so'rovnomaga bergan javoblarini haqqoniy deb baholay olamiz. Natijalarning tekshiriluvchilarning jinsiy tafovutlari bo'yicha solishtirganda ham NSH ko'rsatkichlaridan kelib chiqib baholaymiz. Ushbu shkalada talaba yigitlar va talaba qizlarning ko'rsatkichlari me'yorda ekan: 15,82 va 16,10. Bu esa qolgan shkalalarni talqin etishga imkoniyat beradi.

So'rovnomaning dastlabki natijalarini jinsiy tafovutlar bo'yicha sharhlaganda barcha shkalalar bo'yicha o'rtacha darajali xususiyatlar xos ekanligi qayd etilgan (yigitlarda ham, qizlarda ham). Bu esa tekshiriluvchilarning qiymatlaridagi tafovutlarni faqat statistik o'lchoqlar orqaligini ajaratib izohlash mumkin. Tekshiriluvchilarning jinslari bo'yicha ko'rsatkichlari tahlil qilinganda ERM (26,62 va 30,3), ERI (29,34 va 32,65), PI (25,96 va 29,58), PK (27,65 va 30,55), SM (30,24 va 34,06), SI (27,82 va 31,93), SK (27,37 va 31,93) bo'yicha qizlarning ko'rsatkichlari nisbatan ustunlik qilgan holda tekshiriluvchilarning farqlarga ega; yigitlarda esa bunday ustunlikdagi tafovut aks etmadi. Bundan ko'rinadiki, talaba qizlarning individual dinamik xususiyatlarni ifodalovchi sifatlarini barcha jabhalarda tengdoshlariga nisbatan etakchilikka ega bo'ldi. Bunday holat ta'lim jarayonida am kuzatiladi. Talaba yigitlar va qizlarning EM, EI, EK shkalalari bo'yicha ko'rsatkichlarida farqlar aniqlanmadi.

Biz natijalarning ikkinchi o'ziga xos tomonlari yoritish maqsadida tekshiriluvchilarning so'rovnomadagi ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlikni aniqlashga erishdik.

Talabalarning so'rovnoma bo'yicha umumiy natijalarida 2-jadvlda keltirilgan.

2-jadval

V.M.Rusalovning "Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlari so'rovnomasi" shkalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar ko'rsatkichi (umumiy)

	ERM	ERI	ERK	PM	PI	PK	SM	SI	SK	EM	EI	EK	NSH
ERM	1	,618**	,246*	,499**	,594**	,352**	,643**	,544**	,595**	,306**	,290	,174	,203
ERI		1	,315*	,400**	,522**	,256*	,591**	,552**	,516**	,327**	,161	,054	,211
ERK			1	,449**	,313**	,411**	,403**	,234	,497**	,442**	,440**	,199	,275
PM				1	,488**	,357*	,614**	,326**	,505**	,251*	,218	-,005	,030
PI					1	,424**	,557**	,583**	,564**	,233	,152	,060	,014
PK						1	,419**	,233	,492**	,098	,071	-,023	,268*
SM							1	,592**	,637**	,357**	,252*	,039	,271*
SI								1	,399**	,229	,134	,046	,231
SK									1	,526**	,494**	,198	,248*

EM										1	,644**	,556*	,365*
EI											1	,558*	,359*
EK												1	,256*
NSH													1

**** $r \leq 0,01$**

*** $r \leq 0,05$**

So'rovnoma shkalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lilikni aniqlaganda 56 ijobiy bog'lanish kuzatildi. Bundan ko'rinadiki talabala jamiyatning eng faol qatlami bo'lganligi va ontogenetik taraqqiyotning ustuvor darajasini aks ettirganlar.

Natijalar talabalarning rasmiy-dinamik xususiyatlarini bir-biri bilan o'zaro bog'liq ravishda rivojlanishi mumkinligi qayd etilmoqda. Bundan ko'rinadiki, ERM, ERI, ERK, PM, PI, PK, SM, SI, SK , EM, EI, EK shkalalar o'rtasidagi ijobiy korrelyasion munosabatlar bir xususiyatning boshqalari bilan uyg'un rivojlanishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

3-jadval

V.M.Rusalovning "Individuallikni rasmiy dinamik xususiyatlari so'rovnomasi" shkalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar ko'rsatkichi (talaba yigitlar)

	ERM	ERI	ERK	PM	PI	PK	SM	SI	SK	EM	EI	EK	NSH
ERM	1	,647**	,290	,561**	,704**	,409**	,658*	,507**	,676**	,331	,436**	,283	,268
ERI		1	,313	,427**	,491**	,408**	,486**	,490**	,606**	,299	,303	,070	,306
ERK			1	,544**	,316	,431**	,355*	,322	,355*	,462**	,554**	,406*	,206
PM				1	,421**	,343*	,620**	,436**	,547**	,252	,356*	,139	,104
PI					1	,401**	,531**	,584**	,702**	,310	,389*	,202	,092
PK						1	,457**	,298	,522**	,272	,133	,304	,410*

SM							1	,652**	,669**	,389*	,494**	,285	,401*
SI								1	,434*	,221	,312	-,028	,380*
SK									1	,511**	,611**	,381*	,238
EM										1	,733**	,674**	,359*
EI											1	,608**	,331
EK												1	,209
NSH													1

** $r \leq 0,01$ * $r \leq 0,05$

Talaba yigitlarning individual–dinamik xususiyatlarini ifodalovchi shkalalar o‘rtasidagi korrelyasion munosabatlarda ham ijobiy korrelyasion munosabatlar ERM, ERI, ERK, PM, PI, PK, SM, SI, SK , EM, EI, EK shkalalar o‘rtasidagi ko‘p kuzatilgan. Masalan, ERG shkalasi qolgan to‘qqizta shkala bilan ijobiy korrelyasion aloqani o‘rnatishga sabab bo‘ldi ($r=0,647$, $r=0,561$, $r=0,704$, $r=0,409$ va boshqalar). Qiymatlarning ko‘rsatishicha shaxsdagi ERMning o‘sishi bilan ERK, PM, PI, PK va boshqa xususiyatlarning rivojlanishi o‘zaro kechishini qayd eta olgan. Ushbu muammoning g‘oyasidan ma’lumki, shaxsning umumiy quvvati boshqa xususiyatlarni rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilishi sabab bo‘ladi.

4-jadval

V.M.Rusalovning “Individuallikni rasmiy dinamik xususiyatlari so‘rovnomasi” shkalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar ko‘rsatkichi
(talaba qizlar)

	ERM	ERI	ERK	PM	PI	PK	SM	SI	SK	EM	EI	EK	NSH
ERM	1	,469*	,070	,338	,313	,135	,521**	,490**	,346	,174	-,116	-,082	-,028
ERI		1	,219	,314	,471*	-,100	,616**	,487**	,255	,255	-,168	-,109	-,018
ERK			1	,285	,238	,325	,390*	,015	,624	,375*	,238	-,061	,378*

PM				1	,563**	,336	,591**	,107	,409*	,208	-,093	-,237	-,170
PI					1	,364	,511**	,505**	,280	,052	-,348	-,191	-,212
PK						1	,245	-,019	,354	-,191	-,095	-,430*	,020
SM							1	,390	,493**	,226	-,263	-,371*	-,035
SI								1	,190	,117	-,249	-,020	-,083
SK									1	,485	,264	-,100	,225
EM										1	,523*	,415*	,371*
EI											1	,515**	,404*
EK												1	,320
NSH													1

** $r \leq 0,01$; * $r \leq 0,05$

Talaba qizlarning individual –dinamik xususiyatlarini ifodalovchi shkalalar oʻrtasidagi korrelyasion munosabatlarda ham talaba yigitlarniki singari ijobiy korrelyasion munosabatlarni aks ettirdi: ERM, ERI, ERK, PM, PI, PK, SM, SI, SK , EM, EI, EK shkalalar oʻrtasidagi. Ulardagi ERG shkalasi qolgan ettita shkala bilan ijobiy korrelyasion aloqani oʻrnatishga sabab boʻldi ($r=0,469$, $r=0,338$, $r=0,313$, $r=0,521$ va boshqalar). Oʻz navbatida talaba qizlardagi ERMning oʻsishi ham boshqa xususiyatlari, ERK, PM, PI, PK va boshqa xususiyatlarning rivojlanishi oʻzaro kechishini qayd eta olgan. Ushbu muammoning gʻoyasidan maʼlumki, shaxsning umumiy quvvati boshqa xususiyatlarni rivojlanishiga asos boʻlib xizmat qilishi sabab boʻladi.

3.2. Ya.Strelyau so'rovnomasini tatbiq etish natijalari

Shaxsning rasmiy-dinamik xususiyatlariga doir so'rovnomalardan biri sifatida YA.Strelyau tomonidan tavsiya etilgan metodikadir. Ushbu metodikaning umumiy tavsifi ustida to'xtalinda, uning shakllanishining metodologik g'oyasi sifatida ONF tiplari bilan bog'liqligi olingan. Ushbu nazariy g'oya metodikaning shkalalarini shakllanishiga asos sifatida xizmat qilishining o'ziga xos tomoni: asab tizimining harakatchanligi, qo'g'aluvchanligi, tormozlanishi va muvozonatlashuvi bilan bog'liqdir. Ushbu xususiyatlarni o'rganish shaxs asab tizimining o'ziga xosligi va muhim jihati hisoblanadi. Tadqiqotimizda so'rovnoman talabalar tatbiq etish orqali ayrim o'ziga xos dinamik xususiyatlarni aniqlashga erishildi (5-jadval).

5-jadval

Ya.Strelyau metodikasi natijalari (umumiy)

	Umumiy		Jins	Xususiy		t
	X	Σ		X	σ	
F _k	53,65	10,53	1	56,3333	11,24	2,026
			2	51,1667	8,50405	
F _t	53,45	7,55	1	55,2500	7,54839	1,416
			2	51,8333	7,80004	
F _x	56,57	10,37	1	61,3333	9,72074	3,782
			2	51,4167	9,66354	
A	1,08	,261	1	1,1479	,29488	1,767
			2	1,0050	,19993	

*** $r \leq 0,001$; ** $r \leq 0,01$; * $r \leq 0,05$

So'rovnomaning me'yoriy ko'rsatkichlarini tahlilida oldin ko'rib o'tilgan metodikadagi an'anaga amal qilindi. Natijalar tekshiriluvchilarning asab tizimini qo'zg'aluvchanligi (F_q) -53,65 ballni tashkil etdi. Bu talabalarning asab tizimiga

xos xususiyatlarni yaxshi mujassamlashganligidan dalolat beradi. O‘z navbatida tormozlanish (53,45 ball) va harakatchanlik (56,57 ball) ham metodikaning me‘yoriga ko‘ra ancha yaxshi mujassamlashganlikni xarakterlaydi. Tekshiriluvchilarning har uchala xususiyatdagi o‘zaro muvofiqligi bir-biriga uyg‘unlashgandir. SHuningdek, talabalarning muvozanatlashganlik kuchi ham me‘yoriy bosqichda ekan (1.08).

Talabalarning gender xususiyatlariga ko‘ra qiymatlarida ham asab tizimiga xos xususiyatlarni yaxshi mujassamlashganligidan dalolat beradi. O‘z navbatida tormozlanish (53,45 va 51,33ball) va harakatchanlik (55,25 va 51,83 ball) ham metodikaning me‘yoriga ko‘ra ancha yaxshi mujassamlashganlikni xarakterlaydi. Tekshiriluvchilarning har uchala xususiyatdagi o‘zaro muvofiqligi bir-biriga uyg‘unlashgandir. Shuningdek, talabalarning muvozanatlashganlik kuchi ham me‘yoriy bosqichda ekan (1.08). Demak, ushbu natijalar talabalarning psixologik jihatdan faol, uzoq vaqt davomida barqaror mehnat qila olish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy mehnatni bajarishga ancha mas‘uliyatli ekanliklaridan dalolat beradi. Biz izlanishlarimizda individuallikning dinamik qirralari ifodalovchi mezonlar o‘rtasidagi korrelyasion bog‘liqlikni o‘rgandik.

6-jadval

**Ya.Strelyau metodikasi shkalallari o‘rtasidagi umumiy natijalari
(umumiy)**

	F k	Ft	Fx	A
F k	1	,284*	,429**	-,387**
Ft		1	,201	-,095
Fx			1	,545**
A				1

** $r \leq 0,01$; * $r \leq 0,05$

Tekshiriluvchilarning qo'zg'aluvlik shkalasi bilan tormozlanish ($r=0,284$), harakatchanlik kuchi ($r=0,284$) o'rtasida ijobiy korrelyatsion munosabatlar aniqlandi. Talabalarning bunday xususiyatlari tormozlanishning bilan qo'zg'aluvchanlikni uyg'unlashuvi tufayli har xil vaziyatlarda ham o'zini tartibga solishga zamin hozirlaydi. Agar talabalarning asab tizimidagi qo'zg'aluvchanlik kuchining haddan ortib ketishi oqibatida, muvozanatlashuv kuchining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Talabalarning harakatchanlik kuchidagi o'sishga erishi muvozanatlashuvning ham o'sishiga sabab bo'lar ekan ($r=0,545$).

Asab tizimining xususiyatlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish talabalar individual dinamik xususiyatlaridagi korrelyatsion munosabatlarni quyidagi tartibda ifodalanishiga sabab bo'ldi.

7-jadval

**Ya.Strelyau metodikasi shkalalari o'rtasidagi umumiy natijalari
(talaba yigitlar)**

	F k	Ft	Fx	A
F k	1	,222	,451**	-,426**
Ft		1	,171	-,115
Fx			1	,464**
A				1

** $r \leq 0,01$;

Talaba yigilarning qo'zg'aluvlik shkalasi bilan harakatchanlik kuchi ($r=0,451$) o'rtasida ijobiy korrelyatsion munosabatlar aniqlandi. Talabalarning bunday xususiyatlari tormozlanishning bilan qo'zg'aluvchanlikni uyg'unlashuvi tufayli har xil vaziyatlarda ham o'zini tartibga solishi bilan umumiy natijalarga mosligini ta'minladi. O'z navbatida talaba yigitlarning asab tizimidagi qo'zg'aluvchanlik kuchining haddan ortib ketishi oqibatida, muvozanatlashuv kuchining izdan chiqishi ham umumiy natijaning xossasi ekandir ($r=-0,426$).

Talabalarning harakatchanlik kuchidagi o'sishga erishi muvozanatlashuvning ham o'sishiga sabab bo'lar ekan ($r=0,464$).

Qizlarning ham ko'rsatkichlarini tahlil etishga e'tibor qarataylik.

8-jadval

**Ya.Strelyau metodikasi shkalallari o'rtasidagi umumiy natijalari
(talaba qizlarlar)**

	F k	Ft	Fx	A
F k	1	,381	,275	-,518*
Ft		1	,132	-,201
Fx			1	,654**
A				1

* $r \leq 0,05$

Talaba qizlarning qo'zg'aluvchanlik kuchining o'sishi ularda muvozanatlashuvni buzilishiga sabab bo'lishini ko'rsatmoqda ($r=0,654$). Talaba qizlarning asab tizimi muvozanatlashuv kuchidagi buzilishlar talaba qizlarda ham harakatchanlik kuchidagi o'sishga erishish oqibatida muvozanatlashuvning ham o'sishiga sabab bo'lar ekan ($r=0,654$). Bu umumiy, talaba yigitlarning ko'rsatkichlar bilan adekvat ekanligini guvohi bo'lish mumkin.

Bundan ko'rinadiki, YA.Strelyau so'rovnomasi orqali ham talabalarning individual dinamik xususiyatlarni o'rganishga xizmat qila oladi deb xulosalashimiz mumkin.

Talabalarning individual dinamik xususiyatlarini chuqurroq o'rganish maqsadida har ikkala metodiklar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik aniqlandi.

9-jadval

**V.M.Rusalov va Ya.Strelyau metodikalari o'rtasidagi korrelyatsion
munosabat ko'rsatkichlari**

	1	2	3	4
ERM	-,149	-,140	,235*	,231*
ERI	-,014	-,167	-,141	-,168
ERK	,235*	,327	-,115	-,086
PM	,261*	,256	-,231*	-,313*
PI	,289*	-,228	,253*	-,248*
PK	,296*	-,070	-,096	-,100
SM	-,364*	-,102	,264*	,302*
SI	-,102	-,398**	,286*	,283*
SK	-,058	-,310**	,267*	,261*
EM	,101	,352**	-,058	-,159
EI	-,073	-,019	-,100	-,027
EK	-,090	,482**	,010	,141
NSH	,457**	,101	-,115	-,127

** $r \leq 0,01$; * $r \leq 0,05$

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Ushbu bob yuzasidan bir narsani e'tirof etib aytish mumkinki, tekshiriluvchilarning individual-dinamik xususiyatlarni o'rganishga xizmat qiluvchi so'rovnomalarning shkalalari bir biri bilan o'zaro ijobiy korrelyatsion bog'lanishlarni o'zida aks ettira olgan. Demak, individuallikni baholashga xizmat qiluvchi metodikalarni o'rnida qo'llay olish ijobiy natijalar berishi shubhasiz.

V.M.Rusalovning "Individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi" shkalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lilikni aniqlaganda 56 ijobiy bog'lanish kuzatildi. Bundan ko'rinadiki talabalar jamiyatning eng faol

qatlami bo'lganligi va ontogenetik taraqqiyotning ustuvor darajasini aks ettirganlar.

Ya.Strelyau so'rovnomasini tatbiq etish natijalariga to'xtaladigan bo'lsak, talaba yigilarning qo'zg'aluvlik shkalasi bilan harakatchanlik kuchi ($r=0,451$) o'rtasida ijobiy korrelyatsion munosabatlar aniqlandi.

Talaba qizlarning qo'zg'aluvchanlik kuchining o'sishi ularda muvozanatlashuvni buzilishiga sabab bo'lishini ko'rsatmoqda ($r=0,654$). Talaba qizlarning asab tizimi muvozanatlashuv kuchidagi buzilishlar talaba qizlarda ham harakatchanlik kuchidagi o'sishga erishish oqibatida muvozanatlashuvning ham o'sishiga sabab bo'lar ekan ($r=0,654$). Bu umumiy, talaba yigitlarning ko'rsatkichlar bilan adekvat ekanligini guvohi bo'lish mumkin.

XULOSALAR

1. Individuallik muammosi psixologiyada keng ko'lamda o'rganadigan masalalar sarasiga kiradiki, uning metodologik asosi yetarlicha shakllangan.
2. Individuallikka daxldor rasmiy dinamik xususiyatlarni o'rganish so'rovnomalari psixologiyada yetarlicha yaratilgan bo'lib, ularning tatbiq etish imkoniyatlarini to'g'ri tashkil etish psixologlar kasbiy kompetentligi bilan belgilanadi.
3. Individuallikni rasmiy dinamik xususiyatlarini o'rganish so'rovnomalari orqali insonlarning bir-biridan differetsiatsiya qilish turli xil darajalari mulohazalarni shakllantirishga imkon beradi.
4. Rasmiy dinamiklikni xususiyatlarni baholash so'rovnomalarida asab tizimining xususiyatlari orqali baholash, asb tizimining ham tabiiy, ham ijtimoiy omillarga bog'liq jihatlarini aks ettirish tabiatiga ega.
5. So'rovnoma shakllari o'rtasidagi korrelyasion bog'lilikni aniqlaganda 56 ijobiy bog'lanish kuzatildi. Bundan ko'rinadiki talabala jamiyatning eng faol qatlami bo'lganligi va ontogenetik taraqqiyotning ustuvor darajasini aks ettirganlar.
6. Talaba yigilarning qo'zg'aluvlik shkalasi bilan harakatchanlik kuchi ($r=0,451$) o'rtasida ijobiy korrelyasion munosabatlar aniqlandi. Talabalarning bunday xususiyatlari tormozlanishning bilan quzg'aluvchanlikni uyg'unlashuvi tufayli har xil vaziyatlarda ham o'zini tartibga solishi bilan umumiy natijalarga mosligini ta'minladi. O'z navbatida talaba yigitlarning asab tizimidagi qo'zg'aluvchanlik kuchining haddan ortib ketishi oqibatida, muvozanatlashuv kuchining izdan chiqishi ham umumiy natijaning xossasi ekandir ($r=-0,426$).
7. Talaba qizlarda ham harakatchanlik kuchidagi o'sishga erishish oqibatida muvozanatlashuvning ham o'sishga sabab bo'lar ekan ($r=0,654$). Bu umumiy, talaba yigitlarning ko'rsatkichlar bilan adekvat ekanligini guvohi bo'lish mumkin.

8. Tekshiriluvchilarning individual-dinamik xususiyatlarni o'rganishga xizmat qiluvchi so'rovnomalarning shkalalari bir biri bilan o'zaro ijobiy korrelyatsion bog'lanishlarni o'zida aks ettira olgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Anan'ev.B.G O problemakh sovremennogo chelovekovedeniya.
2. Merlino V.S Ocherk teorii temperamentov.2-e izd. Perm, 1973.
3. Belous V.V. Problema tipa temperamentov v sovremennoy differentsialnoy Psihologii.-Psixol 1981.
4. Rusalov V.M. O prirode temperamentov I ego meste v strukture individualnykh svoystv cheloveka. Vop psixologiya, 1985, № 1, c. 19-32.
5. Rusalov V.M. Biologicheskie osnovy individualno-psixologicheskikh razlichiy 1979.Teplov B.M
6. A.I.Rasulov, Individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi